

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 33 (1094), 2024-yil 15-fevral, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



IJTIMOIY HIMOYA TIZIMI BO‘YICHA TAKLIFLAR KO‘RIB CHIQLDI

Prezident Shavkat Mirziyoyevga ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish bo‘yicha takliflar taqdimot qilindi.

Mamlakatimizda aholining ijtimoiy himoyasiga alohida e‘tibor qaratilib, ijtimoiy xizmat turlari va ko‘lami kengaytirib kelinmoqda. 2023-yil 1-iyunda davlatimiz rahbarining “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilingan edi. Unga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi.

O‘tgan davrda Agentlik tomonidan ijtimoiy himoya tizimining samaradorligi va manzilligi joylarga chiqib o‘rganildi. Bu jarayonda tizimni mahalla darajasida adolati tashkil etish, to‘g‘ri moliyalashtirish, og‘ir ahvolga tushib qolgan odamlarning ijtimoiylashuviga ko‘maklashishda kamchiliklar borligi ayon bo‘ldi.

Taqdimotda ushbu muammolarni tizimli hal etishga qaratilgan takliflar ko‘rib chiqildi.

Ular ko‘ra, endi mahalladagi “yettilik” oilalardagi ijtimoiy muammoning sababi, ularga ta’sir qiluvchi

omillarni aniqlaydi, mavjud imkoniyatlarni baholab, ularni og‘ir vaziyatdan olib chiqish bo‘yicha ijtimoiy xizmatlarni safarbar qiladi.

“Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasidan yordamlarni oilaning ijtimoiy ahvolini individual baholash asosida ko‘rsatish yo‘lga qo‘yildi.

Davlatimiz rahbari bu takliflarni ma’qullab, tegishli hujjatlarni ishlab chiqish, hayotga samarali joriy etish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

O‘zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konvensiya talablarini hayotga tatbiq etishni izchil davom ettirish, jumladan, nogironligi bo‘lgan insonlarga ko‘maklashish, jamiyatga integratsiya qilish, sifatli protez-ortopediya moslamalari va reabilitatsiya vositalari bilan ta’minlash tizimini takomillashtirish zarurligi ta’kidlandi.

O‘za

Dolzarb mavzu

Mamlakatimizda soha va tarmoqlar faoliyatini raqamlashtirish, inson omilini kamaytirish bo‘yicha keng qamrovli islohotlar olib borilmoqda. Bu davlat organlari faoliyatining ochiq, shaffofligini ta’minlab, ko‘rsatilayotgan xizmat va amalga oshirilayotgan ishlarining adolat mezonlariga muvofiqligini hamda natijalarning haqqoniyligini ta’minlashga xizmat qiladi.

DAVLAT XIZMATIGA KIRMOQCHIMISIZ?

Unda tanlov bosqichlaridagi o‘zgarishlardan xabardor bo‘ling

Ta’kidlash kerakki, vazirlik va idoralarning kadr bo‘linmalari faoliyatini to‘liq raqamlashtirish, xodimlarni ishga olishda ochiqlikni ta’minlash, nomzodlarni saralash va munosiblarini tanlashda inson omilini kamaytirish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

So‘nggi uch yil davomida bu borada amalga oshirilgan islohotlar mazkur masalaga yechim topishda qulay imkoniyat yaratdi. Natijada hozirgi kunda 69 ta vazirlik, idora hamda ularning hududiy bo‘linmalariga ishga kirish ochiq tanlov asosida yo‘lga qo‘yildi. Bu esa O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan tashkil etilgan Davlat fuqarolik xizmati vakant lavozimlarining yagona ochiq portali — vacancy.args.uz orqali amalga oshirilmoqda.

O‘tgan davrda ushbu portaldagi davlat organlari va tashkilotlaridagi 165 mingdan ortiq vakant lavozimlarga tanlovlar e‘lon qilindi, ularda 2 million 85 mingdan ziyod nomzod ishtirok etdi. Bu bir o‘ringa o‘rtacha 12-13 nomzod to‘g‘ri keldi, degani.

Mazkur tanlovlarda 55,9 mingdan ortiq nomzod tanlov g‘olibi sifatida turli lavozimlarga tayinlangan.

Ayni paytda vazirlik va idoralarda hamda ularning quyi tuzilmalarida o‘tkazilayotgan tanlovlar 4 bosqichda tashkil etilmoqda.

Birinchi bosqichda vakant lavozimlarni ko‘rsatgan holda tanlov o‘tkazilishi to‘g‘risida e‘lon beriladi, ikkinchi bosqichda nomzodlarning hujjatlari qabul qilinadi va saralanadi.

Davomi 2-beta

Buyuk o‘zbek yo‘li

TADBIRKOR MA’NAVIYATI

yangi davr talablariga javob beryaptimi?

(Uchinchi maqola)

Bugun mamlakatimizda tadbirkorlik ma’naviyatini xalq manfaatlariga yo‘lida to‘g‘ri va samarali tashkil qilishda ko‘plab omillar hamda tamoyillar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sohani rivojlantirishda mazkur omillar va tamoyillarning ta’siri tadbirkorlikning barcha jabha va yo‘nalishlarida yaqqol namoyon bo‘lmoqda.



Tadbirkorlikda shaffoflik va ochiqlik tamoyillariga amal qilish, ya’ni barcha uchun barobar, shaffof va ochiq biznes muhitini yaratish muhim hisoblanadi. Sohada shartnoma tuzish, turli hujjatlarni qabul qilish va resurslarni taqsimlash jarayoni ochiq va obyektiv mezonlarga asoslangan bo‘lishi kerak. Tadbirkorlar o‘z moliyaviy hisobotlari va faoliyati to‘g‘risidagi boshqa ma’lumotlarni ochiq qilish, agar zarur bo‘lsa, nashr etishi xilma-xil salbiy holatlarni yashirish ehtimolining oldini olishga xizmat qiladi.

Axloqiy me’yor va odob-axloq qoidalari ham halol tadbirkorlikning ta’sirchan omillari sirasiga kiradi. Bu borada tadbirkorlar va tadbirkorlik subyektlari uchun turli salbiy jihatlarni taqiblovchi, ularning faoliyati uchun aniq tamoyillarni belgilaydigan axloqiy me’yorlar hamda odob-axloq qoidalari ishlab chiqish va amalga oshirish ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu me’yor va tartiblarga qat’iy rioya qilish turli qonunbuzilishlarni aniqlash va ularni bartaraf etishning shaffof mexanizmini yaratish imkonini beradi.

Ta’lim-tarbiya barcha sohalaridagi tadbirkorlar ma’naviyatini yuksak darajada shakllantirishning eng muhim omilidir. Bu tizim har bir tadbirkor vatanparvarlik, xalqparvarlik, insonparvarlik, halollik kabi axloqiy me’yor va odob-axloq qoidalari shakllantirishga xizmat qiladi. Binobarin, tadbirkorlarni ma’naviy tamoyillar va talablar to‘g‘risidagi xabarlardan voqif qilish va ularni halol biznes yuritishga o‘rgatish

uchun maxsus o‘quv dasturlari ishlab chiqish, turli tarbiyaviy mashg‘ulotlarni tashkil qilish muhim.

Kuchli jamoatchilik nazorati tizimining yo‘lga qo‘yilayotgani ham mamlakatimiz tadbirkorlari orasida yuksak ma’naviyat muhiti va odob-axloq qoidalari shakllanishiga ta’sir ko‘rsatishi shubhasiz. Turli kamchilik va nuqsonlarni o‘z vaqtida aniqlash hamda ularni bartaraf etishda ushbu nazorat shaklining ahamiyati beqiyos. Ayrim tadbirkorlar tomonidan narxnavoniy sun’iy oshirish va korrupsiya holatlariga yo‘l qo‘yilishini muntazam nazorat qilishda, monopoliyaga qarshi kurash hamda turli shikoyatlarni ko‘rib chiqish mexanizmlarini takomillashtirishda jamoatchilik nazoratining o‘rni alohida ahamiyatga ega.

TA’SIRCHAN SHART-SHAROITLAR

Mamlakatimizda tadbirkorlik ma’naviyatining yangi davr talablariga mos va rivojlangan fuqarolik jamiyatiga xos darajasi shakllanishiga bir necha omillar katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Ular orasida Prezidentimizning ushbu sohaga alohida e’tibori va ko‘plab amaliy tashabbuslari hamda ularning amaliyotga tatbiq etilishi, davlatimiz tomonidan tadbirkorlar uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Davlatimiz rahbarining o‘tgan yil 4-sentyabrda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida tadbirkorlikni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha 57 ta tashabbus ilgari surilgan. Ushbu hujjat bilan 42 banddan iborat “Yo‘l xaritasi” tasdiqlangani alohida ahamiyatga ega. Bu bandlarda kichik biznesga yangi imkoniyatlar yaratish, o‘rta biznesni barqaror iqtisodiy o‘sish garoviga aylantirish, yangi bozorlarga sifatli va raqobatbardosh mahsulot bilan kirish, yuqori daromadli korxonalarni ko‘paytirish, soddaliq ma’urchilligi va byurokratiyasiz qulay muhit yaratish bilan bog‘liq masalalarning yechimlari ko‘rsatib berilishi soha rivoji uchun keng yo‘l ochdi.

Qaror asosida kichik biznes loyihalarini moliyalashtirishning yangi tizimi yaratilib, “Qishloq qurilish bank” ATB negizida Biznesni rivojlantirish banki tashkil qilindi. Uning faoliyatida kichik biznes, jumladan, mahalliy sanoat, xizmat ko‘rsatish va qishloq xo‘jaligida energiya tejamlor texnologiyalarni joriy etish loyihalarini moliyalashtirish va ularga kompleks xizmatlar ko‘rsatish ustuvor yo‘nalish etib belgilandi.

Davomi 3-beta

Tahlil

MUQOBILI YO‘Q NE‘MAT

Shunday ekan, nima uchun uni asrab-avaylamasligimiz kerak?!

Suv insonning birlamchi ehtiyoji, hayotiy zarurati. Qolaversa, suvning muqobili ham yo‘q. Ustiga-ustak, insoniyat tamadduni, iqtisodiyot taraqqiyoti, maishiy turmushimiz sharoiti suvning qadri va ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Ma’lumotlarga ko‘ra, bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyot tarmoqlarida bir yilda o‘rtacha 56–57 milliard kub metr suv resurslaridan foydalaniladi. Shundan 87 foizi qishloq xo‘jaligida, 9 foizi energetika, sanoat va baliqchilik, bor-yo‘g‘i 4 foizi ichimlik suvi ishlab chiqarish maqsadlari uchun sarflanadi. Iste’molchilar soni muntazam o‘sib bormoqda, suv zaxiralari esa cheklangan.



HAMMA TUSHUNIB YETISHI SHART BO‘LGAN MASALA

Bugungi kunda suvni asrash mavzusi global darajada ko‘tarilib, nufuzli xalqaro tashkilotlar minbarlarida yamgramoqda. Olimu mutaxassislar, ekologlar, soha faollari chaqiriqlar tashlamoqda. Mamlakatlar suv taqchilligi hamda mavjud zaxiralarni tejash yuzasidan tegishli choralar ishlab chiqmoqda, maxsus dasturlar qabul qilmoqda.

O‘zbekiston ushbu yo‘nalishda boshqalarga qaraganda ko‘proq e’tibor qaratishi talab etilmoqda. Chunki respublikamizda shakllanadigan suv manbai mamlakat ichkarisida emas. Bunga misol sifatida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan o‘tgan yilning 22-sentabr kuni aholini sifatli ichimlik suvi bilan ta’minlash masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilishda aytilgan fikr-mulohazalar, fakt va raqamlarni, amaliy harakatlar yuzasidan berilgan topshiriqlarni keltirish mumkin. Gap shundaki, o‘sha yig‘ilishda mamlakatimizda aholi salomatligini yaxshilash va hayot sifatini oshirishga qaratilgan ko‘plab ijtimoiy, hududiy dasturlar bajarilayotgani, xususan, so‘nggi olti yilda ichimlik suvi sohasiga davlat byudjetidan 14 trillion 500 milliard so‘m yoki oldingi davrga nisbatan 6 barobar ko‘p mablag‘ ajratilgani, 31 ming kilometr ichimlik suvi va oqova tarmoqlari o‘tkazilgani, 1200 ta suv inshooti qurilib-ta’minlangani tufayli mingta mahalladagi 6,5 million aholi xonadonlariga ilk bor toza ichimlik suvi kirib borganini aytilgani. Lekin hali qilinadigan ishlar ham kam emasligi, 30 ta tuman va 1400 ta mahallada ichimlik suvi ta’minotini yaxshilash zarurligi ham ta’kidlangan. Ular uchun toza suv manbasini topish zarur.


Davomi 4-beta

Ajdodlar shoni

Navoiyni tanitmoq — elni tanitmoq, demak

O‘zbek xalqining kimlik tushunchasini ifoda etguvchi milliy timsol

“Sultonlar uning asarlariga ega bo‘lishga intilar, choparlar yuborib, Navoiydan kitoblar tilar va uning asarlarini o‘z kutubxonalarining oliy bezagi sifatida ardoqlar edilar”.





Dolzarb mavzu

DAVLAT XIZMATIGA KIRMOQCHIMISIZ?

Unda tanlov bosqichlaridagi o'zgarishlardan xabardor bo'ling

Abdulla ABDIYEV,
Shomaruf QOSIMOV,
Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi yetakchi inspektorlari

Boshlanishi 1-betda

Uchinchi bosqichda ularning bilimi test sinovidan o'tkaziladi, to'rtinchi bosqichda esa nomzodlar bilan tanlov komissiyasi tomonidan suhbat o'tkaziladi.

Agentlik tomonidan tanlov bosqichlarini takomillashtirish bo'yicha ham izchil ishlar olib borilyapti. Bu borada uchinchi bosqich — nomzodlarning bilimini test sinovidan o'tkazish uchun 2023-yil 1-dekabrda boshlab "Davlat xizmatchi" — yagona test tizimi joriy etildi.

Ma'lumot o'rinda aytish joizki, avval ushbu bosqichda turli sohalarga doir ishlab chiqilgan 20 dan ortiq test sinovi turlari mavjud edi va sinovdan o'tish natijalari ham vazirliklar va idoralarda turlicha bo'lgan.

Endilikda yangi tartib bo'yicha tashkil etilayotgan sinovlardan o'tish uchun nomzod eng kamida 56 ball to'plash talab qilinadi. E'tiborlisi, ushbu sinovda ishtirok etgan nomzodlarning belgilangan ballari va undan yuqori to'plagan ijobiy natijasi 3 oy muddat mobaynida avtomatik ravishda amal qilishi, ya'ni "onlayn sertifikatlash" tartibi joriy etildi.

Bu o'zgarishlar bir nomzodning turli tashkilotlardagi vakant lavozimlarga o'tkazilayotgan tanlovda ishtirokini rag'batlantirib, "onlayn sertifikat"ga egaligi tufayli unga 3 oy davomida tanlovlarning test sinovlari bosqichida takroran ishtirok etmasdan, navbatdagi suhbat bosqichiga to'g'ridan-to'g'ri o'tish imkonini beradi.

Ayni paytda tanlovda ishtirok etayotgan nomzodlar o'rtasidagi o'zaro raqobat muhiti bilim, ko'nikma va tajribaga asoslangan suhbat bosqichiga ko'chgan. Bu esa test bosqichida

bir marta ijobiy natijaga erishgan tanlov ishtirokchilariga o'zlarining asosiy vaqtini suhbatga tayyorgarlik ko'rishga sarflashi, o'z ustida ko'proq ishlashi, sohaga doir yo'riqnomaga va qo'llanmalar bilan tanishib, zarur hollarda ilg'or xorijiy tajribani ham o'rganishi uchun qulaylik yaratadi.

Albatta, bu kabi o'zgarishlar bir vaqtning o'zida agentlik hamda vazirlik va idoralarda faoliyat ko'rsatayotgan tanlov komissiyalariga katta mas'uliyat yuklaydi.

Davlat organlari va tashkilotlardagi vakant lavozimlarni malakali kadrlar bilan to'ldirish maqsadida o'tkazilayotgan tanlovlarning suhbat bosqichida inson omilini kamaytirish, barcha nomzodlarga teng imkoniyat yaratish bo'yicha keng jamoatchilik tomonidan bildirilgan qator takliflarni inobatga olib, agentlik tomonidan tanlovlarning suhbat bosqichini yanada takomillashtirish uchun vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda yangi tizim joriy etilmoqda. Unga ko'ra, avvalo, suhbatning intervyu shakli, ya'ni nomzodlarga berilayotgan savollar yukining teng bo'lishini ta'minlash maqsadida savollarni tasodifiy tanlash dasturi (avtomatik generatsiya tizimi — random) orqali tashkil etish ko'zda tutilmoqda.

Ikkinchidan, suhbatning taqdimot shakli,

ya'ni suhbat o'tkazish kunidan uch kun oldin nomzodlarning shaxsiy kabinetiga taqdimot mavzulari yuborilib, suhbat davomida nomzod tomonidan berilgan mavzulardan biri bo'yicha taqdimot qilinishini nazarda tutuvchi tartib joriy etilishi kutilmoqda.

Ikkala tizimda ham asosiy savollardan so'ng berilgan javoblarni aniqlash maqsadida suhbat komissiyasi tomonidan ko'pi bilan beshta qo'shimcha savol berilishi nazarda tutilgan.

Shuningdek, suhbat yakunlangandan so'ng shu kunning o'zida tanlov komissiyasi a'zolari tomonidan nomzodlarni platformadagi shaxsiy kabinetini orqali onlayn tarzda baholash va qo'yilgan ballarni izohlash tizimi joriy etiladi.

Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan davlat organlari va tashkilotlaridagi vakant lavozimlarga o'tkazilayotgan tanlovlarning barcha bosqichlarida ochiqlik va shaffoflikni yanada oshirish, adolat tamoyillarini mustahkamlash va inson omilini kamaytirish bo'yicha ishlar davom ettirilib, kelgusida ushbu tizimga avtomatlashtirilgan sun'iy intellektni bosqichma-bosqich joriy etish ham ko'zda tutilgan.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonunga binoan, davlat fuqarolik xizmatchisining shaxsiy hujjatlari to'plami elektron shaklda yuritilishi ko'zda tutilgan, bu borada ham agentlik tomonidan bir qator amaliy ishlar qilinmoqda.

Jumladan, vazirlik va idoralarda inson

Vazirlik va idoralarda inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish sohasini takomillashtirish, faoliyatini raqamlashtirish, byurokratik to'siqlar, korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish va inson omilini qisqartirish maqsadida agentlik tomonidan Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan hamkorlikda hrm.uz platformasi ishlab chiqilib, 2023-yil 1-noyabrda amaliyotga joriy etildi.



Agentlik tomonidan tanlov bosqichlarini takomillashtirish bo'yicha ham izchil ishlar olib borilyapti. Bu borada uchinchi bosqich — nomzodlarning bilimini test sinovidan o'tkazish uchun 2023-yil 1-dekabrda boshlab "Davlat xizmatchi" — yagona test tizimi joriy etildi.

resurslarini rivojlantirish va boshqarish sohasini takomillashtirish, faoliyatini raqamlashtirish, byurokratik to'siqlar, korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish va inson omilini qisqartirish maqsadida agentlik tomonidan Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan hamkorlikda hrm.uz platformasi ishlab chiqilib, 2023-yil 1-noyabrda amaliyotga joriy etildi.

Bugungi kunda har bir vazirlik va idoralarda inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limlarida hrm.uz platformasini yuritishga alohida mas'ul xodim birlashtirilgan. U orqali tashkilotdagi tarkibiy tuzilma,

shtatlar, lavozimlar va xodimlar to'g'risidagi ma'lumotlarni yagona elektron bazaga jamlangan holda axborotni to'plash, unga ishlash berish ko'zda tutilgan. Shuningdek, kadrlar shaxsiy tarkibiga oid buyruq, qaror va farmoyishlar loyihalarini ishlab chiqish, xodimlarning ish faoliyatini samaradorligini avtomatik baholash, ularni masofaviy o'qitish, kadrlar bo'yicha ma'lumotlarning elektron arxivini yuritish ham rejalashtirilgan.

Prezidentimizning 2023-yil 24-maydagi "Ma'muriy islohotlar doirasida raqamli texnologiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari

to'g'risida"gi farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 22-sentabrda "Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida inson resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, 2023-yil 1-noyabrda boshlab respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan inson resurslarini boshqarishga oid hujjatlar elektron platforma — hrm.uz da shakllantirilishi va yuritilishi belgilangan.

Mazkur platforma joriy etilishi natijasida bir qator qulayliklar yaratildi. Xususan, endilikda vakant lavozimlarga tanlov e'lon berishdan ishga qabul qilish natijalari bo'yicha hujjatlarni rasmiylashtirishga bo'lgan jarayonlar to'liq elektron tarzda amalga oshirildi.

Xodimlar davomati va ish vaqti hisobi tabeli, shuningdek, xizmat safari, mehnat ta'tili, mehnatga layoqatsizlik davri elektron shaklda qayd etib boriladi.

Kadrlarga oid ish yurituv hujjatlari elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan holda faqat tizim orqali elektron shaklda qabul qilinadi va yuritiladi. Kadrlar bo'yicha ma'lumotlarning elektron arxivi yaratiladi. Xodimlarning ish faoliyatini samaradorligini avtomatik baholash va masofaviy malakasini oshirishga erishiladi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining yuqoridagi qayd etilgan qaroriga ko'ra, kadrlarga oid ma'lumot va hujjatlar:

— davlat organi tuzilmasi, xodimlar bilan tuzilgan mehnat shartnomalari, qo'shimcha bitimlar, vakant ish o'rinlari to'g'risidagi ma'lumotlar YAMMT (my.mehnat.uz)ga;

— qabul qilingan ichki idoraviy hujjat (buyruq, qaror va farmoyish)larni ijroga qaratis uchun edo.ijro.uz axborot tizimiga;

— xodimlarga oylik ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni to'lash uchun zarur ma'lumotlar UzASBO dasturiy majmuasiga avtomatik tarzda yuboriladi.

Bu kabi ishlar va ko'rilayotgan chora-tadbirlar tashkilotlardagi xodimlarning yagona umumiy hisobotini yuritish hamda kadrlar siyosatini olib borishda umumiy rejalashtirish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, inson resurslarini boshqarish bo'limlari faoliyatining to'liq raqamlashtirilishi davlat organlarida kadrlar bilan ishlab yon'nalishidagi byurokratik to'siqlar, korrupsiyaviy xavf-xatarlar va inson omilining qisqartirilishi, qog'oz sarfining o'rtacha 50 foizga kamayishiga yordam beradi.

Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimizda davlat xizmatini yanada rivojlantirish, sohadagi islohotlarni yangi bosqichga ko'tarishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Hududlar hayoti

ISH BO'LSA,
ISHCHI TOPILADI...

Jizzax viloyati yaqin yillargacha sanoat ko'rsatkichlari bo'yicha aholi jon boshiga eng past hududlardan biri edi. Bugungi kunga kelib, viloyatning har bir tumaniga sanoat kirib bordi. Chekka-chekka manzillarda ham xorij sarmoyasi evaziga bunyod etilgan korxonalar ish boshlanmoqda.

Chunonchi, Forish tumanida "Rockfiber" MCHJ tomonidan umumiy qiymati 583 milliard so'mlik bazaltlan roving ishlab chiqarish loyihasi ishga tushirilib, 205 ta qo'shimcha ish o'rini yaratildi. Yoki Zarbdor tumanidagi "Jizzax organic" MCHJ XKning qiymati 130,9 milliard so'mlik bo'rdochilik kompleksi va omuxta yem ishlab chiqarish loyihasi ishga tushirildi. Ushbu loyiha doirasida Zomin va Zarbdor tumanlari hududidan qariyb 12 ming gektar yer maydoni ajratildi. Shu kungacha investorlar tomonidan qariyb 200 million dollar sarmoya kiritildi. Ayni paytda ushbu agroklasterdagi qariyb bir yarim ming kishi mehnat qilmoqda.

— Mamlakatimiz aholisi 37 millionga yaqinlashdi, — deydi zominlik faxriy nuroniy O'rol Oqovlov. — Tabiiyki, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada yurtimizda tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Xorijiy sarmoyalar orqali mana shunday klasterlar tashkil etilayotgani aholining oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishini ko'paytirish bilan birga, minglab odamlar ishli bo'lishiga xizmat qilmoqda. Qarang, bitta ushbu loyiha tufayli qariyb bir yarim ming fuqaro doimiy daromad manbaiga ega bo'ldi.

Yangi yil arafasida G'allaorol tumanida Birlashgan Arab Amirliklari "Masdar" kompaniyasining 150 million dollarlik to'g'ridan-to'g'ri sarmoyasi asosida bunyod etilgan quyosh fotoelektr stansiyasi foydalanishga topshirildi. Loyiha to'liq ishga tushirilgach, yiliga 500 million kVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi, bu esa viloyat aholisi ehtiyojining 20 foizini qoplaydi, deganidir.

— Sir emas, shu vaqtgacha elektr energiyasidagi uzilishlar sabab xorijiy sarmoyadorlar, ayniqsa, chekka hududlarga sarmoya kiritishga ikkilanardi, — deydi "BMB Holding" kompaniyasi kuzatuv kengashi raisi Bekzod Mamatqulov. — Faoliyatimiz elektr energiyasi bilan bevosita bog'liq. G'allaorol tumanida qurilayotgan quyosh elektr stansiyasi esa biz uchun ayni muddao. Ta'minotda endi uzilishlar bo'lmasligini inobatga olib,

rossiyalik investorlar bilan hamkorlikda "BMB-NRC Agrolistics" korxonasini tashkil etishga qaror qildik. O'tgan yili ushbu korxonaning birinchi bosqichini ishga tushirdik. Agrolistics kamida 10 ming tonna sig'imga ega muzlatkichli kameralar va omborlar bor. Loyiha to'liq ish boshlagach, 810 ming tonna qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish imkoniyati paydo bo'ladi. Ayni paytda 180 doimiy, 400 dan ziyod mavsumiy ish o'rini yaratdik. Majmua to'liq quvvatda ishga tushirilgach, 1410 kishi doimiy ish bilan ta'minlanadi.

Darhaqiqat, mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirishda investitsiyalarning o'rni juda muhim. Jizzaxga jalb qilinayotgan investitsiyalar miqdori yil sayin ortib bormoqda. Bu obod bo'layotgan shahar qishloqlar va aholining turmush tarzida o'z ifodasini topmoqda.

— Zafarobod tumanining Forish bilan chegara hududida "Huaxin Cement Jizzax" MCHJ qo'shma korxonasi ishga tushirilishi har ikki tuman aholisi uchun yaxshi imkoniyat bo'ldi, — deydi forishlik Erkin Rajabov. — Ikki yildan buyon ushbu zavodda ishlab chiqarilgan portland sementi olib keladi, kechqurun uyga qaytarib olib boradi. Oyligim ham yaxshi. O'tgan yili to'y qildim, uyimni ta'mirladim.

Asosiy, oilam bag'ridaman. Farzandlarim tarbiyasi bilan shug'ullanaman. Uzoq yillar chek elda ishladim. Musofirlikka yurib, mamlakatimizda ham zavod-fabrikalar qurilsa, odamlarimiz oilasi bag'rida yashab, mehnat qilsa, deb orzu qilardim. Yaratganga shukur, hozir bitta Forishning o'zida o'nlab sanoat korxonalari bor.

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar samarasida xalqimiz turmush farovonligi oshib, yashash sharoiti tubdan yaxshilanmoqda. Eng muhimi, odamlarning yurtimizda bo'layotgan o'zgarish va yangilanishlarga ishonchi va daxldorlik tuyg'usi oshmoqda.

Farhod NE'MATOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Ko'ngildagi bitiklar

ONALARNING TILIDA,
DILIDA VATAN!

Zuhra MIRGAZIYEVA,
Toshkent viloyati hokimi
o'rinbosari, Oila va xotin-qizlar
boshqarmasi boshlig'i

Insonning yashab turgan manzili, tabiati, qarindosh-urug'lari, yaqin birodarlari, unda qaror topgan urf-odatlar, qadriyatlar hamma-hammasi — Vatan. Uni misoli tog' deb faraz qilsak, tog'ning yaqinida turib, ulug'vorligini his eta olmaganimiz kabi bag'rida ekanimizda ham har doim qadrimni anglab yetavermaymiz. Tog'ning bor bo'y-basti, haybati uzoqdan yaqqol ko'ringanidek, Vatan hissi ham insonga yiroqda bo'lganida seziladi. Shuning uchun ham turli sabablar bilan o'zga yurtlarda yashayotgan, umri mufosirlikda o'tayotgan vatandoshlar yurt tuprog'ini qo'msaydi. Yurtga qaytishni orzu qilib, sog'iniyb yashaydi.

Eng baland imoratlar ham poydevordan boshlanadi. Vatanparvarlik tuyg'usi-chi? Har bir bola tarbiya asosini, eng avvalo, oilada oladi. O'g'il-qizlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ta'lim tizimi oiladan keyingi o'rinda turadi. Boisi, bolalar ko'pincha ona bilan yaqin muloqotda bo'ladi. Birlamchi hayotiy ko'nikmalarni, Vatanga sadoqat, ota-ona va atrofidagilarga mehr-muhabbat kabi yuksak axloqiy va ma'naviy fazilatlar ona bergan tarbiyadan boshlanadi.

Ular zimmasiga farzandlarini sog'lom tarbiyalash bilan birga, dilbandlariga ma'rifat eshigini ochishdek, jamiyatga ruhan tetik, vatanparvar farzandlarni tarbiyalab berishdek mashhaqqatli vazifa ham yuklangan. Uyda, oilada, farzandlar tarbiyasida vatanparvarlik qadriyatlarini, o'zlikni ardoqlash, Vatanga mehr-muhabbat tuyg'ulari aynan ona mehri, ona tili orqali singdiriladi.

Aslida, vatanparvarlik, el-yurtga fidoyilik, bir qarashda, oddiy narsadek tuyuladi. Lekin u hayot talabi bo'lgan ana



shunday dolzarb ishlardan boshlanadi. Zero, mehribon onasi, oilasi, farzandlari baxtli bo'lishini istagan har qanday inson

bu yo'lda o'zini, butun borlig'ini baxshida etishga tayyor turadi.

Vatanparvarlik insonning o'z oilasiga, avlod-ajdodlarining or-nomusiga chuqur ehtiromi, vijdoniga, burchiga va so'ziga sodiqdigidir. Inson bolalik chog'idan xalqiga, uning an'alariga, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmat ruhida tarbiya topmas ekan, unda vatanparvarlik hissi bo'lmaydi.

Yoshlarni vatanparvarlik va sadoqat ruhida tarbiyalashda, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanini chuqur singdirishda yurtimiz mustaqilligi yo'lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimizni misol qilib ko'rsatishimiz mumkin. Xalqimizning To'maris, Shiroq, Spitamen, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik singari mard va jasur farzandlari yosh avlod uchun ibrat timsolidir. Ularning o'chmas jasorati tarix zarvaralariga mangu bitilgan. Bu buyuklarimiz bilan faxrlanishi, ularga munosib bo'lishi uchun ularning bosib o'tgan shonli yo'lini bolalarimizga hikoya qilib yoki manbalardan o'qib berishimiz lozim.

Oilada ona zukko, bilimdon, yuksak ma'naviyatli bo'lsa, vatanparvar, aqlli, go'zal xulqli farzandlarni voyaga yetkazadi. Sohobqiron Amir Temur o'z tuzuklarida



Buyuk o'zbek yo'li

TADBIRKOR MA'NAVIYATI

yangi davr talablariga javob beryaptimi?

(Uchinchi maqola)



Qiyom NAZAROV, falsafa fanlari doktori, professor

Boshlanishi 1-betda

Mazkur bank huzurida har bir hududda 14 ta kichik biznesga ko'maklashish markazi tashkil etilib, ular kichik tadbirkorlik subyektlariga biznes loyihalarini ishlab chiqishda ko'maklashish, buxgalteriya, soliq, audit, marketing, huquqiy va boshqa konsalting xizmatlarini ko'rsatish bilan shug'ullanishi nazarda tutilganini alohida qayd etish lozim. Ayniqsa, kichik tadbirkorlik subyektlari va yirik davlat korxonalarini o'rtasida kooperatsiya aloqalarini ko'rsatish bilan shug'ullanishi nazarda tutilganini alohida qayd etish lozim. Ayniqsa, kichik tadbirkorlik subyektlari va yirik davlat korxonalarini o'rtasida kooperatsiya aloqalarini ko'rsatish bilan shug'ullanishi nazarda tutilganini alohida qayd etish lozim.

Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi transformatsiya qilinib, unga kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarining ustuvor ravishda xizmat ko'rsatish, "yashil" va energiya samarador loyihalari bo'yicha kompensatsiya va kafilliklar ajratish tizimini yo'lga qo'yish, bank va nobank kredit tashkilotlari tomonidan kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlariga milliy va xorijiy valyutada ajratiladigan kreditlar bo'yicha ham kafilliklar taqdim etish vakolati berilgan ham soha rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi shubhasiz. Xizmatlar ipotekasi tizimi joriy qilinishi va xizmat ko'rsatish yo'nalishlariga tayyor loyihalar (biznes-reja, bank va nobank kredit tashkilotlari orqali moliyaviy resurslar, bino-inshootlar va uskunalar) tadbirkorlik subyektlariga taklif etilishi ham shular jumlasidan.

Sanoatni rivojlantirish jamg'armasi faoliyati takomillashtiriladi va yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqarish hamda mavjud quvvatlarini kengaytirishga qaratilgan sanoat loyihalariga xorijiy valyutada yillik 5 foiz, milliy valyutada yillik 10 foiz stavkada 10 yilgacha muddatga kredit mablag'lari ajratish tizimi joriy qilinmoqda.

Sanoat ipotekasi tizimi yo'lga qo'yilib, tadbirkorlik subyektlariga yer uchastkalarini (ishlab chiqarish maydonlari) qurish uchun tegishli ruxsatnomalar va loyiha hujjatlari rasmiylashtirilgan holda "tayyor biznes" shaklida auktsion savdolariga chiqariladi. Bino-inshootlarni xarid qilish va ijaraga olish uchun 7 yil muddatga, 2 yilgacha imtiyozli davr bilan milliy valyutada yillik 10 foiz stavkada kreditlar ajratilmoqda.

Kichik sanoat zonalarida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarining huquqlari kengaytirilib, ushbu zonalarda ishlab chiqarish obyektlarini ishga tushirib, investitsiya majburiyatlarini bajaragan tadbirkorlik subyektlariga yer uchastkalarini xususiy lashtirishga ruxsat berish tizimi yo'lga qo'yilmoqda.

"Yangi O'zbekiston — raqobatbardosh mahsulotlarni yurti" dasturi bilan qamrab olingan korxonalar soni 500 taga yetkaziladi va dastur orqali eksportchi korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni izchil davom ettirish va ularning moliyaviy imkoniyatlarini yanada kengaytirish choralarini ko'rilmoqda.

Qonunchilik talablariga to'liq amal qilgan holda tadbirkorlarning faoliyat yuritishini rag'batlantirish tizimi joriy etiladi va unga, asosan, tadbirkorlik subyektlarining ishonchlik reytingi asosida yuqori reyting ko'rsatkichlariga ega tadbirkorlik subyektlari uchun soliq tekkiruvlaridan ozod qilish hamda qo'shilgan qiymat solig'i summasi o'rni qoplash (qaytarish), shuningdek, barcha soliq turlari bo'yicha mavjud ortiqcha to'lov summasini bir kun muddatda tezlashtirilgan tartibda qaytarish tizimi yo'lga qo'yilishi nazarda tutilgan.

Soliq nizolari doirasida tadbirkorlik subyektlarining huquqiy himoyasi kuchaytirilib, soliq majburiyati bo'yicha da'vo qilish muddati 3 yilga cho'zildi. Tadbirkorlar uchun hisobot tizimini soddalashtirish natijasida bir-birini takrorlovchi va davlat organlarining boshqa organlardan olish imkoniyati mavjud bo'lgan statistik hisobot shakllarini bekor qilish, tadbirkorlik subyektlari tomonidan davlat organlariga topshiriladigan statistik va boshqa hisobotlarning yagona ro'yxatini tasdiqlash hamda hisobotlarni shakllantirish va topshirish jarayonlarini bosqichma-bosqich raqamlashtirish hisobiga ularning qog'oz shaklini bekor qilish belgilanmoqda.

Tadbirkorlarga kreditlar bo'yicha majburiyatlarini bajarishda qulayliklar yaratish maqsadida to'lov miqdori kredit majburiyatlarini bajarish uchun yetarli bo'lmaganda, mablag'larni, birinchi navbatda, mutanosib ravishda muddati o'tgan asosiy qarz va foiz qarzdorliklarini, ikkinchi navbatda, joriy to'lov uchun hisoblangan foizlar va asosiy qarzni, keyingi navbatlarda, neustoyka va ijro xarajatlarini qoplashga yo'naltirish tartibi o'rnatilmoqda.

BIZNES MONOPOLIYASI

Tadbirkorlik sohasida halollik tamoyillarining buzilishi va ayniqsa, o'z yo'nalishida monopoliyaga ega bo'lish, buning oqibatida esa barcha raqiblarni to'la-to'kis bartaraf qilish hamda boshqa tadbirkorlarning faoliyat yuritishiga imkon qoldirmaslik holatlari nihoyatda og'ir natijalarga olib keladi. Falsafa tarixida bunga nisbatan ajoyib bir misol bor. Qadimgi G'arb falsafasining asoschisi, deb e'tirof etiladigan mashhur faylasuf Fales o'zi yashaydigan Milet yarim-oroli va shu nomdagi polis, ya'ni shahar-davlatning demokratiya maydonida zaytunning eng noyob va faqat Milet'da o'sadigan navidan olinadigan yog'moy mahsulotlari sotishni to'liq o'zlariniki qilib olgan ba'zi boy savdogarlarning noinsoligi, ularning mol-mulk to'plash va pulga hirs qo'yganini nihoyatda qattiq va muttasil tanqid qilardi.

Faqirona hayot kechiradigan Falesni mulzam qilish maqsadida o'sha tadbirkorlar o'zaro til biritiradi va bir necha aktyorlarni yollab, har yili demokratiya maydonida o'tadigan va ko'pchilik to'planadigan eng katta tadbirkorlar birligi — dengiz va suv xudosi Neptun sharafiga uyushtiriladigan bayramda faylasufni bahsga tortadi. Hech narsadan xabarsiz Fales bahsga rozi bo'ladi va unga "Agar aqlli, ilmi va donishmand bo'lsang, nega boy-badavil emassan? Kambag'alliging hammaga ma'lum, ammo bu borada tezd bo'yib ketishni uddalay olasammi? Masalan, bir yil muddatda, ya'ni kelgusi yilgi Neptun bayramigacha bizning sohada ham bizdan aqlliligini isbotlab bera olasammi?" degan savol bilan murojaat qilishadi.

Gap nimaldiligini yaxshi anglagan faylasuf ularga "Shartlaringga roziman, faqat mening ham bir shartim bor. O'zlaringiz dehqonlardan sotib olgan barcha yog'moylarni hamda moyjuvuzlarni menga, bugundan qolmasdan va kechagi narxda, bir yil muddatga qarzga berasizlar va birotangiz men bilan shartnoma tuzmasdan yurtingizga yog' va yog' mahsulotlarini olib kirmaysiz, olib ham chiqmaysiz, ularni sotib ham olmaysiz, sotmaysiz ham. Ushbu shartnomani esa keyingi besh yilga cho'zish yoki cho'zmaslik huquqini faqat menda qoldirasiz", deb shart qo'yadi.

Allomani bu sohada mulqo savodsiz va uquvsiz deb hisoblaydigan hamda o'zlariga qattiq ishonadigan boy tadbirkorlar bu shartga rozi bo'ladi va o'sha zahotiyog' faylasuf tomonidan yozilgan shartnomaga imzo chekadi. Aksiga olib, bu voqea ta'sirlotlari butun Milet davlati aholisi orasiga keng tarqaladi va aksariyat fuqarolar ushbu kelishuvning oxiri nima bilan tugashini sabrsizlik bilan kutib yurgan o'ziga xos jamoatchi nazoratchilarga aylanadi.

Fales raqiblarining o'zi qo'ygan shartga ko'rib, shartnoma imzolangan daqiqadan oqib shiddat bilan ishga kirishadi. U hali bayram tugamasidan va maydondagi xaloyiq tarqamasidanoq barcha moyjuvuzlar boshliqlari almashirilgan, mamlakatga kirib-chiquvchi savdogarlarning birotasi faylasuf bilan shartnoma tuzmasdan yog'moy mahsulotini sotib oolmasligi va sotolmasligi, yog'moy yetishtiruvchilarni quvvatlash maqsadida unga to'lanadigan narxning uch barobarga, sotuv narxining esa olti barobarga oshganini e'lon qiladi.



Raqiblar bundan esi og'ib qolmagan bo'lsa kerak, ammo sohada ancha tajribali bo'lgan bu kishilar o'sha zahotiyog' qanday xatoga yo'l qo'yganini anglab yetadi va qilmishidan qattiq pushaymon bo'la boshlaydi. Ammo vaqt o'tgan va bir necha soat bo'lsa-da, o'zlarini imzolagan shartnoma kuchga kirgani, ya'ni shartnoma tuzilgan va unga rioya qilish shartligini yaxshi anglaydi. Shartnomaga rioya qilinmagan taqdirda esa aybdorlar demokratiya maydonida sud qilinishi belgilab qo'yilgan va ularga nisbatan

yo'q. Mashhur faylasuf-ku, o'zini mulzam qilmoqchi bo'lgan raqiblariga qarshi ushbu usulni qo'llagan va pirovardida to'plagan boyliklarini uning haqiqiy egalari qaytarish uchun o'zida kuch topa olgan edi. Ammo undan keyin ikki yarim ming yildan ortiqroq vaqt o'tgan bo'lsa-da, biror sohada monopoliyani qo'lga kiritgan kishilarning to'plagan barcha boyliklarini aholiga bo'lib berganiga insoniyat tarixi guvoh bo'lmagan...

MAS'ULIYAT VA TARBIYA ZARURATI

Hozirgi paytda yangi jamiyat qurish bilan birga, yetuk ma'naviy sifatlarga ega bo'lgan, yuksak ma'rifatli, ulkan salohiyatli va ziyoli tadbirkorlar avlodini tarbiyalash dolzarb vazifaga aylandi. Har bir inson, jumladan, tadbirkor kishining ma'naviy dunyosi — o'ta nozik xilqat va undagi biror-bir kemptik holatni tuzatish va o'nglash uchun yillar davomida muntazam sabr-toqat bilan tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish, amaliy chora-tadbirlar, hayotiy o'zgarishlarni muvofiq lashtirish taqozo etiladi. Shu bilan birga, jahon tajribasida tadbirkorlik va mulkdorlik shakllana boshlagan dastlabki o'n yilliklarda ayrim kimsalarda pul jamg'armasini haddan ortiq ko'paytirish, turli yo'llar

bo'lgan "Vatan", "xalq", "demokratiya" kabi tushunchalar nihoyatda siyqalashdi, asl ma'nosi va ahamiyatini yo'qotdi. Afinaliklar ayndilar va maydalashib ketdilar, shunchalik maydalashdilar, gohida "Zamon ayndidimi yoki odamlar ayndilarmi?" degan savol ortiqchadek ko'rinadigan bo'lib qoldi. Ularning ba'zi azimas narsalar haqidagi uzoq va ma'nosiz suhbatlarini tinglab, "Nahotki, hech narsaga aqli yetmaydigan qullar ham bu darajaga tushmaydigan Suqrot va Afлотun zamonlari abadiyatga o'tib ketgan bo'lsa?" degan savol aqlli kishilarning etini junjiktirib yuboradi. Holbuki, o'z davrida Suqrot hayotning mazmuni va umrning ma'nosi haqidagi fikr-mulohazalari, fuqarolik qasamiga sodiqligi va haqiqat yo'lidagi pozitsiyasi bilan afinaliklarning yuziga oyna tutdi va buni har kuni, har safar demokratiya maydoniga borganida takrorlashdan charchamadi. Afinaliklar allomani anglash, ma'naviy tozalanish va tazarru qilish o'rni Suqrotning sudga tortilari va uning o'limiga sababchi bo'ldilar. Ammo ahvol o'zgarimasdan qolaverdi. Natija nima bo'ldi. Afina o'z hayoti va vatan taqdiriga befarq, oyoqlari ostidan boshqasini ko'ra olmaydigan nobakorlik kasriga uchradi. U aloqabot o'z mustaqilligini yo'qotdi va ulkan imperiyaning kichik bir qismiga aylanib qoldi".

Beruniyning Gesiod qalamiga olgan davrdan ming yildan ortiqroq vaqt o'tib yozilgan kapital bozori endigina shakllanib kelayotgan davrda bu haqda quyidagicha yozgan edi: "Ushbu jarayonlar ijtimoiy munosabatlarda pul, boylik va mulkni ko'paytirishga intilishni ustuvor yo'nalishga aylantiradi va bu yo'l'dan borayotgan kishilar o'rtasida uyat va andisha, o'zaro hurmat va birovning haqiga xiyonat qilmaslik, jamiyat va o'zgalar taqdiri haqida qayg'urish tuyg'ularini yo'q qilib yuboradi. Bunday sharoitda yashayotgan ba'zi odamlarda o'zi tug'ilgan yurt va orzu qilib tanlagan kasbining muqaddasligi, Vatan va xalqqa sadoqat, millat va davlat manfaatlarini o'ylab ish qilish, o'zgalarga g'amxo'rlik va yo'qsillarning boshini silash tuyg'ulari ham muqarrar tarzda yemirilib boraveradi".

Albatta, har bir davr o'z ma'naviyat tizimi bo'lib, u vaqt o'tishi bilan o'zgarib, mazmunan boyib boradi, ba'zi shakllari transformatsiyaga uchraydi, ayrim tamoyillari yo'qoladi, yangilari shakllanadi. Bu jarayon birdaniga emas, asta-sekin, tadrijiy ravishda yuz beradi. Bu bilan bog'liq ba'zi salbiy xususiyatlar zamonaviy tadbirkorlar ma'naviy qiyofasini shakllantirish amaliyotida ham biror-bir tarzda namoyon bo'lish ehtimoli yo'q emas. Va bunda ham ijtimoiy sotsionika qonunlari amal qiladi hamda ushbu sohada ba'zi hollarda namoyon bo'ladigan ayrim juz'iy salbiy tendensiyalar, turli oqibatlar va ularni bartaraf qilish yo'llarini bilish ham foydadan xoli bo'lmasligi shubhasiz.

Bularning barchasi tadbirkorlarning ma'naviy qiyofasi hamda ishbilarmon va mulkdorlarning mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish, bu sohaga kirib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash masalasi tor va kichkina doiradagi oddiy va azimas mavzu emas, balki butun jamiyat va davlat hayotiga, xalq taqdiriga taalluqli bo'lgan, umumiy ahamiyatga ega obyektiv zarurat ekanidan dalolat beradi.

Shuning uchun ham ushbu sohaning bilimlil va yetuk ziyoli mutaxassislari, ishbilarmonlar va mulkdorlarning yosh avlodini tizimli tarbiyalashni yo'lga qo'yish maqsadida "Tadbirkorlik universiteti"ni tashkil etish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Shu asosda soha vakillari uchun mo'tjallangan, ularning qiziqishlari va mazkur jabha xususiyatlarini hisobga olingan ma'naviy-ma'rifiy va axloqiy yo'nalishdagi o'quv fanlarining yangi tizimini ishlab chiqish zarurati amaliyotga aylantirish imkoni ochiladi.

Ayni shu yo'nalishda "Biznesning ijtimoiy mas'uliyatini oshirish konsepsiyasi"ni yaratish va unga mos ravishda "Biznesda "toza qo'llar" tamoyilini amalga oshirish dasturi"ni ishlab chiqish hamda ularni hayotga tizimli joriy etish zarurati allaqachon yetilgan. Shu nuqtayi nazardan, 2023-yil 18-avgust kuni davlatimiz rahbarining tadbirkorlar bilan ochiq muloqotida bildirgan "Yo'l qo'yilgan kamchiliklardan to'g'ri saboq chiqarib, faqat oldinga intilsak, bizning mehnatkash xalqimiz, ishbilarmon tadbirkorlarimiz har qanday mashaaqqatni albatta yengib o'tadi, men bunga ishonaman", degan fikri ishbilarmonlik va tadbirkorlik bilan mashg'ul bo'lgan barcha yurtodoshlarimiz uchun muhim faoliyat mezonidir.

O'z navbatida, bu O'zbekistonning yangi yo'lish davrini yaratishda faol ishtirok etishi lozim bo'lgan har bir fuqaro, jumladan, yurtingiz tadbirkorlarining qalbi va ongida ma'naviyat chirog'i muttasil yonishi hamda barchamizni ezu amallarga undab, doimo mas'uliyat tuyg'usini uyg'otib turishi zarurligidan dalolat beradi.

"YANGI O'ZBEKISTON — RAQOBATBARDOSH MAHSULOTLAR YURTI" DASTURI BILAN QAMRAB OLINGAN KORXONALAR SONI 500 TAGA YETKAZILADI VA DASTUR ORQALI EKSPORTCHI KORXONALARNI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNI IZCHIL DAVOM ETTIRISH VA ULARNING MOLIVAVIY IMKONIYATLARINI YANADA KENGAYTIRISH CHORALARI KO'RILMOQDA.

Konstitutsiyada ko'zda tutilgan "Rozi-rizolik va o'z ixtiyori bilan shartnoma tuzgan, ammo uni bajarmagan shaxs o'limga mahkum etiladi yoki fuqarolikdan mahrum qilinib, qullar orasiga yuboriladi" degan qoida muqarrar ravishda kuchga kirar edi.

Xullas, bir yil davomida butun mamlakatdagi yog'moy savdosi Falesning ixtiyoriga o'tadi va u bundan nihoyatda ustamonlik bilan foydalanadi. Faylasuf haddan ortiq bo'yib ketadi va cheksiz mol-mulkka ega bo'ladi. Kelgusi yilgi Neptun bayramida esa uni mulzam qilishga intilganlarning barchasi butun mamlakatdan kelgan deputatlar qarshisida allomadan uzr so'raydi va shartnomani cho'zmaslikni o'tinib iltimos qiladi.

Falsafa tarixchilari Falesning ushbu anjumanda sharmandalarcha mulzam bo'lgan raqiblariga nisbatan qanday fikrlar bildirganini tarixning hukmiga qoldiradi. Ular bu haqdagi hikoya nihoyasida allomaning to'plagan barcha boyliklarini yog'moy yetishtiruvchi dehqonlarga bo'lib bergani va o'zi esa yana faqirona hayot kechira boshlaganini qayd qiladi.

Xo'sh, Falesni tez muddatda boy qilgan usulning nomi nima edi, deb o'ylaysiz? Albatta, monopoliya. Alloma aqlini ishladi, shartnoma tuzishda ayrorlik qildi va monopoliyaga erishdi, natijada barcha raqiblarini bozordan chiqarib yubordi va narx-navonini faqat o'zi belgilashga muvaffaq bo'ldi. Klassik monopoliya shu va bundan boshqa narsa emas.

Fales davridan buyon 2600 yil vaqt o'tdi, ammo u foydalangan monopoliya usulining biror-bir tuki ham, tamoyili ham o'zgarгани



bilan boylik orttirish va mol-dunyo to'plashga ruju qo'yish mayllari kuchayib borishi allaqachon aniqlangan. Buzor munosabatlari endigina shakllanayotgan ba'zi mamlakatlarda onda-sonda uchrab turadigan bunday shafqatsiz holatlar to'g'risida mashhur allomalar va taniqli mutaxassislarning fikr-xulosalari bu haqda aniqroq ma'lumotga ega bo'lish imkonini beradi.

Masalan, qadimgi yunon allomasi Gesiodning ana shu haqdagi pamfletlaridan biri quyidagicha boshlanadi: "Afsuski, tarixning telba shamollari Afina xarob qildi. Katta imkoniyatga ega bo'lgan mulkdorlar va tadbirkorlar haddan ortiq mol-mulk to'plash, pul va boylik orttirish yo'lida hech narsadan qaytmaydigan, o'zgalarni va ayniqsa, yo'qsillarni o'ylamaydigan bo'ldi. Ularning ta'siriga tushgan ko'pchilik odamlar na xudolardan, na qonunlardan qo'rqmaydigan bo'lib qoldi. Ilgari afinaliklar uchun muqaddas

bilan boylik orttirish va mol-dunyo to'plashga ruju qo'yish mayllari kuchayib borishi allaqachon aniqlangan. Buzor munosabatlari endigina shakllanayotgan ba'zi mamlakatlarda onda-sonda uchrab turadigan bunday shafqatsiz holatlar to'g'risida mashhur allomalar va taniqli mutaxassislarning fikr-xulosalari bu haqda aniqroq ma'lumotga ega bo'lish imkonini beradi.

Masalan, qadimgi yunon allomasi Gesiodning ana shu haqdagi pamfletlaridan biri quyidagicha boshlanadi: "Afsuski, tarixning telba shamollari Afina xarob qildi. Katta imkoniyatga ega bo'lgan mulkdorlar va tadbirkorlar haddan ortiq mol-mulk to'plash, pul va boylik orttirish yo'lida hech narsadan qaytmaydigan, o'zgalarni va ayniqsa, yo'qsillarni o'ylamaydigan bo'ldi. Ularning ta'siriga tushgan ko'pchilik odamlar na xudolardan, na qonunlardan qo'rqmaydigan bo'lib qoldi. Ilgari afinaliklar uchun muqaddas

bilan boylik orttirish va mol-dunyo to'plashga ruju qo'yish mayllari kuchayib borishi allaqachon aniqlangan. Buzor munosabatlari endigina shakllanayotgan ba'zi mamlakatlarda onda-sonda uchrab turadigan bunday shafqatsiz holatlar to'g'risida mashhur allomalar va taniqli mutaxassislarning fikr-xulosalari bu haqda aniqroq ma'lumotga ega bo'lish imkonini beradi.

Masalan, qadimgi yunon allomasi Gesiodning ana shu haqdagi pamfletlaridan biri quyidagicha boshlanadi: "Afsuski, tarixning telba shamollari Afina xarob qildi. Katta imkoniyatga ega bo'lgan mulkdorlar va tadbirkorlar haddan ortiq mol-mulk to'plash, pul va boylik orttirish yo'lida hech narsadan qaytmaydigan, o'zgalarni va ayniqsa, yo'qsillarni o'ylamaydigan bo'ldi. Ularning ta'siriga tushgan ko'pchilik odamlar na xudolardan, na qonunlardan qo'rqmaydigan bo'lib qoldi. Ilgari afinaliklar uchun muqaddas

Masalan, qadimgi yunon allomasi Gesiodning ana shu haqdagi pamfletlaridan biri quyidagicha boshlanadi: "Afsuski, tarixning telba shamollari Afina xarob qildi. Katta imkoniyatga ega bo'lgan mulkdorlar va tadbirkorlar haddan ortiq mol-mulk to'plash, pul va boylik orttirish yo'lida hech narsadan qaytmaydigan, o'zgalarni va ayniqsa, yo'qsillarni o'ylamaydigan bo'ldi. Ularning ta'siriga tushgan ko'pchilik odamlar na xudolardan, na qonunlardan qo'rqmaydigan bo'lib qoldi. Ilgari afinaliklar uchun muqaddas

Masalan, qadimgi yunon allomasi Gesiodning ana shu haqdagi pamfletlaridan biri quyidagicha boshlanadi: "Afsuski, tarixning telba shamollari Afina xarob qildi. Katta imkoniyatga ega bo'lgan mulkdorlar va tadbirkorlar haddan ortiq mol-mulk to'plash, pul va boylik orttirish yo'lida hech narsadan qaytmaydigan, o'zgalarni va ayniqsa, yo'qsillarni o'ylamaydigan bo'ldi. Ularning ta'siriga tushgan ko'pchilik odamlar na xudolardan, na qonunlardan qo'rqmaydigan bo'lib qoldi. Ilgari afinaliklar uchun muqaddas

Masalan, qadimgi yunon allomasi Gesiodning ana shu haqdagi pamfletlaridan biri quyidagicha boshlanadi: "Afsuski, tarixning telba shamollari Afina xarob qildi. Katta imkoniyatga ega bo'lgan mulkdorlar va tadbirkorlar haddan ortiq mol-mulk to'plash, pul va boylik orttirish yo'lida hech narsadan qaytmaydigan, o'zgalarni va ayniqsa, yo'qsillarni o'ylamaydigan bo'ldi. Ularning ta'siriga tushgan ko'pchilik odamlar na xudolardan, na qonunlardan qo'rqmaydigan bo'lib qoldi. Ilgari afinaliklar uchun muqaddas



Tahlil

MUQOBILI YO'Q NE'MAT

Shunday ekan, nima uchun uni asrab-avaylamasligimiz kerak?!



Dilshod AZIMOV, "O'zsvuta'minot" aksiyadorlik jamiyati boshqaruv raisi vazifasini bajaruvchi

Boshlanishi 1-betda

Ko'p hollarda suv behuda yo'qotilyapti, iste'molning esa aniq hisobi yo'q. Ayrim nasoslar, soha korxonalariga tegishli maxsus texnikalar eskirgan davlatimiz rahbari tanqidiga sabab bo'lgandi. Shundan kelib chiqib, jamiyatimiz zimmasiga 2023-yil yakunigacha 12 ming kilometr tarmoq hamda 1300 ta suv inshooti qurish va ta'mirlash orqali 145 ta mahalladagi 1 million 100 ming aholi ilk bor markazlashgan ichimlik suvidan bahramand bo'lishini ta'minlash vazifasi qo'yilgandi.

Ana shu vazifa mas'uliyati yilni samarali yakunlashga zamin yaratdi. Jumladan, 2023-yilda barcha dasturlar doirasida byudjetdan ajratilgan 5,4 trillion so'mlik mablag'lar hisobiga 2598 obyektda 11 ming 207 kilometr ichimlik va 593 kilometr oqova suv tarmoqlari hamda 1740 ta suv inshooti qurilib, rekonstruksiya qilindi.

LOYIHA IJTIMOVIY AHAMIYATI BILAN E'TIBORLI

"To'palang" suv ombori manbalari hisobiga ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash" eng yirik loyihalardan biri bo'ldi. Mazkur loyiha nafaqat yirikligi, balki ahamiyati bilan ham alohida ajralib turadi. Ya'ni loyiha doirasida 1,4 trillion so'm hisobiga 147 kilometr tarmoq tortilib, Sarisioy, Denov, Sho'rchi, Qumqo'rg'on tumanlarining 273 mahallasida istiqomat qiluvchi 1,1 million kishining ichimlik suvi ta'minoti va sifati tubdan yaxshilandi. Bu Surxondaryo viloyati aholisining 40 foizi, demakdir.

Investitsiya dasturiga ko'ra esa 22 loyiha doirasida jami 225,5 million dollar qarz mablag'lari o'zlashtirilib, joriy yil uchun belgilangan prognoz ko'rsatkichi ortig'i bilan uddalandi. Bunda Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, OPEC jamg'armasi, Osiyo infratuzilma investitsiyalar banki kabi xalqaro moliya institutlarining hisssasi katta bo'ldi. Buning hisbidan joriy yilda 10 ta suv taqsimlash inshooti va 19 ta oqova suv nasos stansiyalarida qurilish ishlari yakuniga yetkaziladi.

Bularning bari pirovardida respublika aholisining markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasini 74,4 foizdan 77,2 foizga yetkazishda muhim omil bo'ldi.

Chindan ham hozir O'zbekistonda aholini toza suv bilan ta'minlash yo'lida ko'plab loyihalar boshlangan va bu jarayon izchil davom etmoqda. Oldinga qo'yilgan maqsad ham aniq: 2030-yilga borib, respublikamizning ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasini 90 foizga yetkazish rejalashtirilgan. Buning uchun yangi inshootlar qurishdan tashqari mavjudlarining imkoniyatini yaxshilash zarur. Jumladan, kelgusi olti yil davomida respublika bo'yicha qariyb 50 ming kilometrdan ziyod ichimlik suvi tarmoqlari hamda 2000 ta inshoot qurilishi va rekonstruksiya qilinishi rejalashtirilgan. Ushbu ishlarga 28,5 trillion so'm ajratilishi ko'zda tutilgan.

KO'RILAYOTGAN VA KUTILAYOTGAN NATIJALAR

Bajarilgan, amalga oshirilayotgan, qilinajak ishlar ko'p. Ulardan ko'rinayotgan va kutilayotgan natijalar ham yomon emas. Odamlarga munosib turmush sharoiti yaratish, xususan, ularni ichimlik suvi bilan ta'minlash davlatimiz, tizimimiz korxonalarining vazifasi. Ammo masalaning ikkinchi tomoni ham borki, iste'molchi suvning muhim manba ekanini, uni ostonagacha olib kelish oson ish emasligini, suvni tejash zarur va shartligini unutmasligi lozim. Loyihalar, suv inshootlari barqaror ishlashini ta'minlash, ta'mirlash, modernizatsiya qilish ko'p mablag' va mehnat talab etadigan jarayon. Qachonki iste'molchining suv bo'yicha tushunchasi, tasavvuri ijobiy tomonga o'zgarsa, xarajatlar kamayadi. Tannarx va tushum o'rtasidagi tafovut ortib ketmaydi. Afsuski, hozir bu borada bunday deya olmaymiz.

Bugungi kunda suv ta'minoti korxonalar zararga ishlamoqda va bu yildan-yilga o'sib boryapti. To'lov tariflarining o'zgartirilmay kelishi va arzonligi suvdan xo'jasizlarcha foydalanish holatlari ko'payishiga va isrofgarchiliklarga sabab bo'lmoqda. Shu bois, hozir ichimlik suvi tariflarini erkinlashtirish bo'yicha muayyan choralar ko'rilayapti. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad — narx ta'sirida



iste'molchilarni tejakorlikka o'rgatish va rag'batlantirish. Qolaversa, bu chora yordamida tarmoq korxonalarining iqtisodiy ahvoli yaxshilanadi, imkoniyati ortadi.

2023-yilda suv ta'minoti korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy holatini yaxshilash uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Buxoro, Qashqadaryo, Samarqand, Sirdaryo, Farg'ona viloyatlari hamda Toshkent shahrida ichimlik va oqova suv xizmatlari bo'yicha yangi tariflar tasdiqlandi. Hozir yana 5 ta hududda tariflar qayta ko'rib chiqilyapti. Yil boshidan ko'rilgan ta'sirchan choralar natijasida ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun debitor qarzdorlik 363 milliard so'mga yoki 28 foizga qisqartirildi. Suv hisoblagichlar o'rnatilib, ular bilan ta'minlanish darajasi 70 foizga yetkazildi.

Iste'molchilarga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati va shaffofligini oshirish maqsadida ichimlik va oqova suv xizmatlarini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan "Uzwater" yagona billing tizimi ishga tushirildi. Ushbu billing tizimi barcha zarur ma'lumotlar bazalarida kadastr xizmati, notarial idoralar, soliq, bank, prokuratura kabi tashkilot va muassasalar bilan integratsiya qilingan.

Bundan tashqari, takomillashtirilgan shaxsiy kabinet orqali iste'molchilar o'z to'lovlarini oylar, yillar kesimida ko'rib borishi, shuningdek, to'lov qilishi va hisoblagichlar ma'lumotlarini kiritishi mumkin. E'tiborlisi, ayni paytga kelib, iste'molchilarning onlayn to'lovlar ulushi 70 foizga yetdi. Vaholanki, 2020-yilda bu ko'rsatkich 15 foizni tashkil etardi, xolos.

Shu kunlarda suv sifati va xavfsizligi monitoringi uchun "WATER LAB" axborot tizimi joriy etilib, testdan o'tmoqda. Uning ahamiyati shundaki, respublika bo'yab ichimlik suvi sifatini nazorat qilish imkoniyati sezilarli darajada kengayadi. Soha bo'yicha kelib tushayotgan murojaatlar "SuvniAsra" tizimi yordamida ko'rib chiqiladi. Tizimning mobil ilovasi orqali murojaatchilar istalgan joydan xabar berishi mumkin.

Toshkent shahridagi suv ta'minoti tizimi obyektlari uchun Monitoring va dispatcherlik boshqaruv tizimi (SCADA) joriy etilgan bo'lib, ushbu dastur nasoslarni masofadan boshqarish, inshootlar quvurlaridagi bosim va suv oqimi to'g'risidagi ma'lumotlarni dispatcherlik markaziga uzatish imkoniyatini beradi.

Ushbu dasturiy tizim bugungi kunda qurilish

bosqichida bo'lgan yangi loyihalarda ham nazarda tutilmoqda. Xususan, "Qodiriya" suv tozalash inshooti, Buxoro oqova suv tozalash inshooti hamda Jizzax viloyatining Uzunbuloq suv tozalash inshootlarida SCADA tizimi yo'lga qo'yiladi.


Joriy yilda 1,3 trillion so'm byudjet mablag'lari hisobiga 1,3 ming kilometr ichimlik va oqova suv tarmoqlari hamda 75 inshootda qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshiriladi. Natijada yil oxiriga borib, respublika aholisining markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasi 81 foizga yetkaziladi.

Sohaga xususiy sektorni jalb qilish maqsadida tajriba tariqasida Kogon, Shirin, Yangiyer, Bekobod va Yangiyo'l shaharlarida ichimlik va oqova suv tizimlari davlat-xususiy shirklik shartlari asosida boshqarilgani beradi.

SUV YO'QOTISHLARI 30 FOIZNI TASHKIL QILADI

Tizimda amalga oshirilayotgan ishlar ko'lami tobora kengayib bormoqda. Lekin qilinadigan ishlar ham kam emas. Hozirgi kunda suv ta'minotida yo'qotishlar 30 foizni tashkil etmoqda. Shu bois, suv yo'qotishlarni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha integratsiyalashgan tizim yaratiladi.

Qolaversa, yirik loyihalarni amalga oshirishda eng maqbul energiya samarador yechimlar qo'llaniladi. Misol uchun, Samarqand shahri kengayishi va aholisi soni 1 millonga yetishi munosabati bilan Zarafshon daryosining yuqori o'ng qirg'og'ida "Galereya" tipidagi yer osti suv inshootini loyihalashtirish va qurish taklif etilmoqda. Bu yangi tipdagi inshoot qurilishi, avvalo, katta mablag'lar hisobiga tozalash inshooti qurmasdan, nasoslar ishlamasdan, elektr energiya sarflamasdan, o'z oqimi bilan Samarqand shahri aholisiga to'liq ichimlik suvini yetkazib berish imkonini beradi.



Namunali manzillar

BOBOSHBEK — HAMMASI BIR JOYDA

Uchko'prik tumanida ishlab chiqarish hajmi va eksport salmog'i o'sdi, geografiyasi kengaydi. Besh yilgina oldin tumanidagi umumiy eksport hajmi bor-yo'g'i 3 million 939,1 ming AQSH dollari bo'lgan, o'tgan yil sarhisobiga ko'ra esa bu mingd 82 million dollardan oshdi. Mazkur ko'rsatkich avvalgi yillarga taqqoslaganda 20 barobar ko'p. Buning asosiy qismi sanoat yo'nalishida ishga tushirilgan loyihalar hissasiga to'g'ri keladi.

Yaqin-yaqinlarda faqat agrar tuman sifatida e'tibor qaratilgan hududda sanoat tarmoqlari bu qadar tez rivojlanishi o'z-o'zidan bo'layotgani yo'q, albatta.

Prezidentimizning "Farg'ona viloyatining Uchko'prik tumanida yangi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni, logistika va savdo tarmoqlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bu borada yangi imkoniyat eshiklarini ochdi. O'tgan qisqa vaqtda "Boboshbek" mahalla fuqarolar yig'ini hududida yangi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, logistik va savdo, ip yigiruv-tikuv kompleksi qurib bitkazildi. Umumiy maydoni 15 gektar bo'lgan yirik majmua 212 ta ishlab chiqarish sexi, 336 ta savdo do'koni, 560 ta kichik savdo rastalari, 2 ta logistika markazi mavjud. Natijada Boboshbek, Bekmurod, Zig'ir, Paloxon va Yakkamulla kabi mahallalardagi trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarayotgan yuzlab tadbirkorlarga zamonaviy sharoitlarda ishlab chiqarish imkoniyati yaratildi.

Ayni kunda tumanidagi 53 ta mahalla fuqarolar yig'ini 4-5-fevral kunlari xonadonda trikotaj va tikuvchilik mahsulotlari

ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgani inobatga olinsa, majmuaning o'rni qanchalik muhimligini anglash qiyin emas.

Birgina "Boboshbek" mahalla fuqarolar yig'ini hududida trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish yo'nalishida 704 ta oilaviy tadbirkorlik subyekti faoliyat ko'rsatmoqda. Tayyorlanayotgan mahsulotlarning asosiy qismi Qo'qon bozorlari orqali yurtimiz hududlari va qo'shni mamlakatlarga yetib borgan. Mahalla hududida qurib bitkazilgan ishlab chiqarish va savdo majmuasi bu yo'nalishda yangi tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash imkonini bermoqda.

Irodaxon Sodiqova o'z xonadonda bolalar va kattalar uchun trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan oilaviy korxonaga tashkil qilgan tadbirkorlardan. Dastlab ikkita tikuv mashinasi bilan ish boshlagan tadbirkor faoliyatini kengaytirish, yangi ish o'rnlari yaratishga har jihatdan harakat qildi. Ammo hovlisi tor, buning ustiga oila tashvishlaridan ortib, boriga baraka tarzida ish olib borayotgandi.

— 2021-yil 4-5-fevral kunlari Prezidentimizning Farg'ona viloyatiga tashrif



Sherzod Qoraboyev olgan surat.

davomida tadbirkorlar bilan amaliy muloqoti ish faoliyatimiz, hayot tarzimizda tub burilish yasadi, desam mubolag'a bo'lmaydi, — deydi Irodaxon. — Uchrashuvda oilaviy korxonalar faoliyatini kengaytirish, tumanimizda o'ziga xos ishlab chiqarish va bozor yaratishda amaliy yordam berishni so'ragandim. Davlatimiz rahbari bu taklifni har jihatdan qo'llab-quvvatlashi tufayli qisqa vaqtda mana shunday zamonaviy ishlab chiqarish va savdo kompleksi qurib

bitkazildi. Ayni paytda yangi majmuaning joy olib, "Xudoyorxon-2022" oilaviy korxonasi asos solindi. Bu yerda ishlab chiqarish uchun zarur bo'ladigan barcha shart-sharoit yaratilgan. Hammasi bir joyda. Keng va yorug' xonalar, issiq va sovuq suv, elektr ta'minoti bilan bog'liq masalalar ijobiy yechilgani ish ko'laminii kengaytirish, mahsulot ishlab chiqarish turi va hajmini oshirish imkonini berdi. Uv sharoitida qishda pechkaga o't qalab kun o'tkazganmiz.

Hamidaxon Akbarova. — Bu yerda to'quv va tikuvchilik yo'nalishida loyihalarni ishga tushirdik. Endi matolarga rang berish borasida ish olib boryapmiz. Bu xomashyodan tayyor mahsulotgacha bo'lgan ishlab chiqarish jarayonini qamrab olish, qo'shimcha qiymat asosida mahsulot tayyorlash, yangi ish o'rnlari ochish imkonini beradi.

Yangi savdo va ishlab chiqarish kompleksida o'z ish faoliyatini yo'lga qo'yib, ko'pga ibrat bo'layotgan tashabbuskor tadbirkorlar safi kundand-kunga kengaymoqda. Savdo kompleksida 9 ta blokni o'z ichiga olgan 3, 4 va 2 qavatli binolar mavjud. Bundan tashqari, xomashyo va mahsulot saqlash omborlariga ham ega.

— Mahallamizning o'sish nuqtasi trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish, — deya suhbatga qo'shildi "Boboshbek" MFYdagi hokim yordamchisi Xurshidbek Samadov. — Bugunga qadar uy sharoitida oilaviy korxonaga faoliyatini yo'lga qo'ygan 32 tadbirkorlik subyekti yangi savdo va ishlab chiqarish kompleksiga ko'chib o'tdi. O'tgan yilning o'zida trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish yo'nalishida tadbirkorlik qilmoqchi bo'lgan 36 nafar tashabbuskorga 621 million so'm imtiyozli kredit berildi. Ishsizligi bois, "Ayollar dafarati"ga kiritilgan 115 nafar xotin-qiz savdo va ishlab chiqarish kompleksidagi yangi tadbirkorlik tarmoqlariga ishga joylashdi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj 10 nafar xotin-qizga subsidiya asosida tikuv mashinalari berilib, uy sharoitida kasanachilik sifatida ish boshladi.

Sirasini aytganda, tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan hayotbaxsh ishlohtlar chekka qishloqlarga sanoatni olib kirish, aholi farovonligini oshirishga xizmat qilyotgani bilan ahamiyatli.

Rasuljon KAMOLOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Mulohaza

Peshonasiga qo'lini tirab turgan kishini kuzatganmisiz? Uning ichi to'la dard, hech kimga yorilmaydi. Rahmingiz kelib, taskin bersangiz-da, vaziyatni yaxshi tomonga o'zgartira olmasiz. Bir og'iz shirin so'z nondek arzanda. Koshki edi, sizning daldangiz bilan stress holatidagi inson o'zini o'nglab olsa. Ruhiiy zo'riqish – kim bilandir ziddiyatga borish, firibgar tuzog'iga tushib qolish, moliyaviy inqiroz, tuhmat, aldanish, oilaviy hayotdagi qo'yi-chiqdi mojarolar kishi ongi, miyasiga kuchli zarba berib, uni boshi berk ko'chaga olib kiradi. Umid qayerda, najot qani?

ASSOTSIATSIYA ISHI JONLANMOQDA

Girdobga tushib qolgan shaxs kimdan, qanday yordam kutadi? Yaqinlarga “yorilish”ning hech qanday yengilligi yo'q. Dalda va taskin bilan vaziyatni o'nglash qiyin.

o'tkazilgan seminar-trening mashg'ulotlari bo'ldi. Sababi, yurtimizda oilaviy ajrimlar ko'paydi. Masalan, 2022-yilda 48 229 ta oilaviy ajralish qayd qilingan bo'lsa, o'tgan yili 49 mingdan ziyod nikoh bekor qilindi. Bu shuni ko'rsatadiki, oilaviy nizolarni hal qilishda mahalla faollari tajribasi yetarli emas.

qilish xizmatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi qaroriga muvofiq, Sog'liqni saqlash vazirligi shtatlar jadvaliga bosh psixiatr va bosh suitsidolog lavozimi kiritildi. Lavozim vazifasi bir-biriga uzviy bog'liq bo'lgan bu mutaxassislar qanday ishlayotgani to'g'risida bir narsa deyolmaymiz. Assotsiatsiyamiz tomonidan “O'zbekistonda psixologik xizmat ko'rsatish to'g'risida”gi yangi qonun loyihasi ishlab chiqilmoqda. Bu hujjat qabul qilinib, kuchga kirsada, aholiga psixologik xizmat ko'rsatish markazlari, yakka tartibda shug'ullanuvchi soha mutaxassislari faoliyati tartibga solinadi. Shu bilan birga, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyunda qabul qilingan “Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaroriga muvofiq, oliy ta'lim muassasalarining



tadqiqotchi Deyl Karnegi ta'limotiga ko'ra, yomon odamning o'zi yo'q, balki ko'ngilsiz voqealar ro'y berib turadi, unga qarshi qat'iy kurashilsa, hammasi joyiga tushadi. Karnegi hamisha tabassum qilish, shubhatdoshini diqqat-e'tibor bilan tinglashga undagan. Hayotga qiziqish uyg'otishning turli usullari muvaffaqiyat qozonish omili ekanini bot-bot ta'kidlagan. Bunday fikrlarni nima uchun yoshlarga yetkazmaymiz, uqirtmaymiz?

KO'PROQ AMALIYOT KERAK

Bir soatlik ma'ruza yoki va'xonlikdan bitta amaliy ish yaxshi. Ma'ruza jonli, hayotdan olingan bo'lsa, notiq auditoriyani o'ziga jalb qila olsa, samarasini beradi. Ammo zerikarli va'zdan ko'ra, boshiga ish tushgan, bu girdobdan chiqish yo'lini axtargan kishining muammosiga yechim topib berishning savobi ko'proq. O'zbekiston psixologlar assotsiatsiyasining Andijon viloyati bo'limi rahbari Nilufar Asqarova faoliyati ana shu maqsadga yo'naltirilmoqda.

— 2016-yildan buyon aholiga psixologik xizmat ko'rsatib kelmoqdamiz, — deydi Nilufar Asqarova. — Ko'p hollarda farzandi tarbiyasida noxushlik kuzatilayotgan ota-onalar bilan ishlaymiz. Televideoniye yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali uzatilayotgan multfilm va videolar bola ong ostiga joylashib, uning ruhiyatiga aks ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Misol keltiramiz: kichkinoylar eng sevib tomosha qiladigan multfilm — “Masha va ayiq” bosh qahramoni Masha injiq, odobsiz, tartib-qoidalam buzadi. Multfilm grafikasi, dizayni, xatti-harakatlar uyg'unligi bilan tomoshabinni o'ziga jalb qiladi. Ammo bola yaxshi ko'rgan hammasi narsa ham uning kamoloti uchun xizmat qilavermaydi, balki yoqimsiz qitildan nusxa olgan dilbandlarimiz fe'l-atvori salbiy tomonga shakllana boshlaydi. Bu esa bora-bora bolani tanbal, injiq, ta'sirchan, xudbin qilib qo'yadi. Tarbiyasi to'g'ri shakllantirilmagan bola o'smirlik davriga kelib, arzimagan holatdan fojia yasaydi va ko'ngilsizlikka ham qo'l uradi. Qabulimizga kelgan o'smirlar ruhiyatini yaxshi tomonga o'zgartirish uchun arterapiya, gipnoterapiya, psixonetika kabi maxsus psixologik metodikalar seansini qo'llaymiz. Avvalo, har bir murojatchining temperamenti aniqlanadi. Surunkali ravishda depressiyani boshidan kechirayotgan shaxs ovqatlanish rasionini ham to'g'ri belgilamaydi, jismoniy harakatlari kamayib ketadi. Ruh va jismi bir-biridan umuman ajratib bo'lmaydi. Ong osti dasturlarini o'z o'rnida qo'llashimiz tufayli bizga kelayotgan yuzlab kishilar ruhiyati yaxshi tomonga o'zgarib qolmoqda. Kelgusida psixologik xizmat ko'rsatish bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasini o'rganib kelish va faoliyatimizni takomillashtirish niyatidamiz.

Psixologik xizmat sirdan qaraganda oddiy bo'lib ko'rinsa-da, uning o'zgalarga ayon bo'lmagan sir-sinoatlari ko'p. Yurtimizda xizmatning bu turini yanada rivojlantirish uchun ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish, kadrlarning yangi avlodini yetishtirish, psixologiyaga oid ilmiy-omnabop adabiyotlarni o'zbek tiliga o'g'irish, milliy mentalitetimiz inobatga olingan qo'llanmalarni yaratish, bu sohada faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislarni rasmiy maqomga ega bo'lgan markaz atrofiga biriktirish lozim. Bu xizmat turi rivojlantirilsa, sodir etilayotgan turli ko'ngilsiz hodisalar kamayadi, jamiyat hayotidagi ma'naviy-ma'rifiy muhit yaxshilanadi. Zero, bugungi sa'y-harakat ertangi natija uchun yo'l ochadi.

Hulkar TO'YMANOVA,
O'zbekistonda
xizmat ko'rsatgan jurnalist

O'ZI YORDAMGA MUHTOJ PSIXOLOGLARIMIZ BOR



Ko'pchilik bilmaydigan va anglab yetmaydigan psixologik xizmat turi borki, uning jamiyat hayotidagi roli va ahamiyati beqiyos. Tasavvur qiling, ishi yurishmayotgan, qattiq ruhiy zarbaga uchragan kishi, bittagina bo'lsa ham, bu ijtimoiy hayotimizga ta'sir qilmasdan qolmaydi. Agar ular o'nta, yuzta, mingta bo'lsa-chi? Bundan keladigan moddiy-ma'naviy zararni ko'z oldingizga keltiring. Xo'sh, ozmi-ko'pmi darajada yo'lga qo'yilgan xizmatning bu turida jarayon qanday kechmoqda, mutaxassislarni bir maqsad yo'lida jipslashtirish, shaxs va shaxslararo munosabatlarni sog'lomlashtirish bo'yicha qanday ishlar qilinmoqda?

— O'zbekiston psixologlar assotsiatsiyasiga 2010-yilda asos solingan bo'lib, 2011-yil 15-fevral kuni Adliya vazirligi tomonidan nodavlat notijorat tashkilot sifatida qayta ro'yxatdan o'tkazilgan, — deydi tashkilot boshqaruvi raisi, psixologiya fanlari nomzodi Hulkar Mahmudova. — O'tgan davr mobaynida aholi uchun markazlashgan psixologik-tibbiy xizmatni yaratish, fuqarolarda sohaga ishonch va to'g'ri yondashuvni shakllantirish, mutaxassislarni amaliyot hamda ilmiy tadqiqot jarayoniga jalb etish, manfaatdor tashkilotlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish bo'yicha qator ishlar amalga oshirildi. Assotsiatsiyaning Namangan, Farg'ona, Andijon, Samarqand, Buxoro hududiy bo'limlari tashkil etildi. Ijtimoiy, yuridik, tibbiyot, amaliyot va ta'lim psixologiyalari bo'yicha muayyan istiqbolli loyihalar yaratildi. Oliy sud rahbariyati bilan kelishilgan holda o'zbek va rus tillarida “O'zbekiston Respublikasida fuqarolik ishlari bo'yicha sud psixologik ekspertalari” ilmiy-amaliy qo'llanmasi tayyorlandi. Mutaxassislar bugun undan amaliyotda foydalanmoqda.

Assotsiatsiya xodimlari tashabbusi bilan X.Sulaymonova nomidagi respublika sud ekspertizasi markazi huzurida psixologiya yo'nalishi ishga tushirildi. Eng so'nggi loyihamiz Oila va xotin-qizlar qo'mitasi bilan hamkorlikda 2023-yilning 24-iyulidan 12-avgustga qadar barcha viloyatlarda

Er-xotinni, qaynona-kelinni murosai madoraga keltirish yo'lini bilmagan xodim ularni o'z holiga tashlab qo'yadi. Vaholanki, psixologiyada ziddiyatga borgan shaxslarning o'zaro munosabatlarni yumshatish, notinch oilalarni sog'lomlashtirish, ruhiy tushkunlik girdobidagi insonga ko'maklashish, zo'rvonlik qurboni bo'lganlarga birinchi yordam ko'rsatishning turli ilmiy-nazariy usullari bor. Mahalla tizimida ishlayotgan mutaxassislar “past-baland”, “og'riqli” nuqtalarni besh barmog'i kabi yaxshi biladi. Shu bois, ularning taklif-mulohazasi hisobga olinib, umumlashtiriladi. Sir emas, MFY xodimlari noutbuk, planshet bilan to'liq ta'minlanmagan. Mahalla xotin-qizlar faollari ish faoliyatida halovat yo'qligi, qog'ozbozlik avj olgani, hisobot topshirishga ko'p vaqt ketayotganini bildirdi. Tizimda huquqshunos, psixolog shtatlarini joriy qilish sodir bo'layotgan ko'ngilsiz hodisalarning oldini olishga xizmat qilishi mumkinligi aytiladi. Barcha fikrlar umumlashtirilib, keyingi faoliyatda inobatga olinadi, albatta.

HUQUQIY-ME'YORIY HOLAT QANDAY?

Har qanday sohani rivojlantirishning huquqiy-me'yoriy asoslari yaratilib, ijrosi ta'minlanmagina, tub burilish yasaliy, mavjud muammolar kamayadi. Xo'sh, psixologik xizmatni takomillashtirish, uning huquqiy-me'yoriy bazasini mustahkamlash uchun nimalar qilinmoqda?

— Yurtimizda yashab o'tgan buyuk ajdodlarimiz ta'limotlarida psixologiyaga doir qarashlar, inson ongiga ta'sir etuvchi salbiy omillarni yo'qotishdek ulug'vor g'oyalari ilgari surilgan, — deya davom etadi Hulkar Mahmudova. — Bizning asrimizga kelib, psixologiya fanini yaxlit tizimga keltirish, shaxs ruhiy olamida kechadigan depressiya holatlarini bartaraf etish o'tkir muammoqa aylanmoqda. Prezidentimizning 2019-yil 13-fevraldagi “2019-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasi aholisining ruhiy salomatligini muhofaza

magistratura bosqichida psixologiya bo'yicha mutaxassisliklarni kvotasi shart-sharoitiga qarab 30 foiz, bo'lg'usi psixologlarning malakali amaliyot davomiyligi 8 haftadan 15 haftaga oshirilayotgani o'z samarasini bermiqda. Eng og'riqli masala — bizda rivojlangan davlatlardagi kabi psixolog faoliyatini litsenziyalash tizimi yo'lga qo'yilmagan.

AQSHda 50 ming, Kanadada 5 ming psixolog ro'yxatdan o'tgan. Har yili qariyb 5 ming amerikalik psixologiya bilan shug'ullanish maqsadida litsenziya olish uchun imtihon topshiradi. Aksariyat shtatlarda mutaxassisdan doktorlik darajasi talab qilinadi. Bu darajani mintaqada akkreditatsiyadan o'tgan muassasagina berish huquqiga ega. Imtihondan muvaffaqiyatli o'tgan nomzodga diplom berilgach, Amerika psixologlar

Bizda hali bu kabi qonunchilik me'yorlari shakllanmagan. Psixologiya sohasida faoliyat yuritishga qodir bo'lmagan, hattoki o'zi bu borada yordamga ehtiyoji bor shaxslarning ish yuritishi soha nufuzi va ommaviylikni ta'minlay olmayapti. Gap kishilar ruhiy-ma'naviy olamini o'nglash haqida borar ekan, bu masalaga davlat miqyosida keng jamoatchilik nazari bilan qarashimiz kerak.

INSON RUHIY OLAMI MURAKKAB

Insonning qalb olami juda murakkab. Uning hayotida turli muammolar uchraydi: jufti bilan kelisholmaslik, farzand tarbiyasida to'g'ri yondashuvni topa olmaslik, moliyaviy inqiroz,



assotsiatsiyasi bazasiga kiritiladi. Germaniyada hech kimga ausbildungsiz ishlashga ruxsat berilmaydi. Ausbildung — muayyan mutaxassislik bo'yicha qo'shimcha ta'lim turi. Nemis psixologlari 1986-yildan boshlab kasbiy axloq kodeksiga qat'iy rioya qiladi.

firibgarlik qurboni bo'lish, ishdagi ziddiyat, muvaffaqiyatsizlik, avtohalokat, aldanish, surunkali yoki xavfli kasalliklar va hokazo. Ruhni zo'riqishga duch kelganda, har qanday kishi o'z muammosiga yechim izlaydi. — Shiddatkor, axborot oqimi nihoyatda

BIR SOATLIK MA'RUZA YOKI VA'XONLIK DAN BITTA AMALIY ISH YAXSHI. MA'RUZA JONLI, HAYOTDAN OLINGAN BO'LSA, NOTIQ AUDITORIYANI O'ZIGA JALB QILA OLSA, SAMARASINI BERADI. AMMO ZERIKARLI VA'ZDAN KO'RA, BOSHIGA ISH TUSHGAN, BU GIRDOBDAN CHIQUISH YO'LINI AXTARGAN KISHINING MUAMMOSIGA YECHIM TOPIB BERISHNING SAVOBI KO'PROQ.

ko'paygan tahlikali va ziddiyatli zamonda yashaymiz, — deydi O'zbekiston davlat konservatoriyasi pedagogika va psixologiya kafedrasini professori, psixologiya fanlari doktori Gulchehra Qurbonova. — Afsuski, fuqarolarimizda axborotni saralab qabul qilish, qaltis vaziyatni to'g'ri baholab, undan oqilona chiqib ketish ko'nikmasi yetishmaydi. O'zbekchilikda qaynona-kelin munosabatlari chigal va nozik, har ikkala tomon o'z “men”ini ustun qo'yadi, ziddiyat kuchayadi, asab taranglashadi, hayotga muhabbat tuyg'usi so'nadi, ba'zan o'z joniga qasd qilishdek fojiali qaror qabul qilinadi. Kuzatishlarga ko'ra, suitsid 14-30 yosh oraliqidagi kishilar o'rtasida ko'proq uchraydi. Bu o'sha shaxsda psixologik bilim yo'qligidan dalolat.

Hozir umumta'lim maktablarida “Tarbiya” o'quv predmeti joriy qilingan, sinf rahbarlari haftasiga bir soat turli mavzularda mashg'ulot o'tadi. Nazarimda, ko'proq o'zbekona urfodatlar, qadriyatlar doirasida o'tilayotgan mavzularni o'smir olamiga moslab jiddiy takomillashtirish davri keldi. 10-11-sinflarda “Oila psixologiyasi” o'quv predmetini joriy qilish foydadan xoli bo'lmadi. O'quvchilar auditoriyasiga nafaqat allomalarimiz, balki dunyo tadqiqotchilarining ham ta'limotini taqdim etishimiz zarur. Amerikalik mashhur

Munosabat

Risolat MADIYEVA,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

Shu kunlarda ijtimoiy tarmoqlarda farzandlari maktab darslarini qoldirib kelayotgan ota-onalarga “Ogohlantirish xati” yuborilayotgani xususida turli xabarlar tarqalmoqda. Mazkur xabarlarda endilikda muntazam dars qoldirib kelayotgan o'quvchilarning ota-onalariga “Ogohlantirish xati” yuborilishi va bu orqali ularga turli tartibda ma'muriy javobgarlik choralari qo'llanilishi aytib o'tilgan.

Davlatimiz rahbari boshchiligidagi joriy yilning 5-fevral kuni o'tkazilgan ijtimoiy sohada ustuvor vazifalarga bag'ishlangan yig'ilishda maktablardagi inspektor-psixologlar shtati Ichki ishlar vazirligidan Milliy gvardiya tizimiga o'tkazildi. Inspektor-psixologlarning asosiy vazifasi — o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasini tashkil etishda maktablar jamoasiga yaqindan ko'maklashish, muntazam dars qoldiruvchi o'quvchilarning ota-onalari bilan ishlash. Shu maqsadda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi va Milliy gvardiya hamkorligida maxsus ishchi guruhi tuzildi hamda bu borada kelgusida amalga oshirilishi zarur bo'lgan ishlar belgilab olindi. Xususan, endilikda maktab direktorlarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar, chaqiriqqa qadar yoshlarni tayyorlash bo'yicha o'rinbosarlari, psixolog hamda sinf rahbarlarining o'quvchilar ma'naviyatini yuksaltirish va

darslardagi ishtiroki, ta'lim-tarbiya ishlarini hamohang tashkil etishga doir mas'uliyati yanada oshiriladi. Ota-onalar va mahalla faollari ishtirokidagi “maktab — ota-ona — mahalla” hamkorligi uzviy tashkil etiladi. O'quvchilarning darsda ishtirok etish ko'rsatkichlari haqqoniylikni ta'minlash uchun e.maktab elektron kundalikka o'qituvchilar va sinf rahbarlari tomonidan o'z vaqtida qaydlar kiritib boriladi.

— Mazkur ta'sir choralari qo'llanilishidan asosiy maqsad darslarga muntazam (uch o'quv kuni va undan ortiq) sababsiz qatnashmayotgan o'quvchilarning yashash manzillariga tezkor ravishda yuborilayotgan “Ogohlantirish xati” orqali darsda ishtirok etmayotgan o'quvchilarning oila a'zolari mas'uliyati va javobgarligini oshirish maqsad qilingan. Unda o'quvchilarning ota-onalariga yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarga O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy

OGOHLANTIRISH XATI Farzandi dars qoldirsa, ota-onasi jarima to'laydimi?



javobgarlik to'g'risidagi kodeksi (MJTK)ning 47-moddasi mazmun-mohiyati tushuntirib o'tilgan, — deydi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Yuridik boshqarma boshlig'i Xurshid Asrorov. — Jumladan, farzandlarini tarbiyalash va ularga ta'lim berish borasidagi majburiyatlarini bajarmaslik, bolalarning majburiy umumiy o'rta ta'lim olishiga to'sqinlik qilish oqibatlari bo'yicha MJTKning tegishli moddasiga asosan qonuniy jazo

choralari keltirilgan. Qonun ustuvorligini ta'minlash, ta'lim jarayonida “maktab — ota-ona — mahalla” zanjirini yo'lga qo'yish, bolalarning sababsiz dars qoldirishiga yo'l qo'yimaslik, turli huquqbuzarlik va boshqa noxush holatlarning oldini olish borasida sezilarli qadamlar qo'yilmoqda. Bu boradagi ishlar mahalladagi yetilki ko'magida allaqachon boshlangan. Vatanni sevish, uning tarqatqiyotiga

Shu bilan birga, maktabga muntazam ravishda kelmayotgan o'quvchilar o'rganilib, mahalla yetiligi va jamoatchilik kengashi bilan manzilli ishlar yo'lga qo'yildi. Xususan, surunkali ravishda dars qoldiradigan farzandlarning ota-onasi bilan uchrashib, tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Chunki qonunchiligimizda umumiy o'rta ta'lim majburiy ekan va davlat nazorat qilishi belgilab qo'yilgan. Uni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi. Agar bola kasal bo'lib qolsa, unga hech qanaqa e'tiroz bo'lishi mumkin emas. Lekin muntazam sababsiz dars qoldirayotgan bo'lsa-chi? Ularning ota-onalari yoki o'rnini bosuvchi shaxslarga O'zbekiston Respublikasi MJTKning 47-moddasiga asosan chora ko'rildi.

O'quvchilarning darsga kelmagani sabablarini aniqlash uchun mahalla raisi, yoshlar yetakchisi, inspektor-psixolog va boshqa mas'ul shaxslar o'rtasida “xabar berish va tekshirish” tizimi joriy qilinmoqda. Haftada kamida bir marotaba Milliy gvardiya, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi vakillari ishtirokida bolalarning ma'naviyati, tarbiyasi va davomati bo'yicha mahalla raislarining ota-onalar bilan uchrashuvlarini o'tkazish amaliyoti yo'lga qo'yilishi ko'zda tutilayotir. Shuningdek, o'quvchilarning darsda muntazam ishtirokini ta'minlash, ularning bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazishi uchun to'garak va mashg'ulotlarni ko'paytirish, ushbu jarayonlarga ota-onalar va hududdagi faol fuqarolarni keng jalb etish bo'yicha boshqa qator vazifalar belgilangan ertamiz egalari bo'lgan bugungi o'g'il-qizlarning ma'naviyati bot, bilim va salohiyati yuksak bo'lib kamolga yetishiga xizmat qiladi.



Ajdodlar shoni

Navoiyni tanitmoq –
elni tanitmoq, demakO'zbek xalqining kimlik tushunchasini
ifoda etguvchi milliy timsol

O'zbekiston Qahramoni, hassos shoir Abdulla Oripovning Besh asrkim, nazmiy saroyini Titratadi zanjirband bir sher. Temur tig'i yetmagan joiyi Qalam bilan oldi Alisher, degan misralarini bilmagan o'zbek ziyolisi bo'lmas kerak. Alisher Navoiy turkiy so'z qudratini cho'qqiga ko'tardi, e'tiborsizlikka yuz tutgan ona tilimizning qaddini tikladi va turkiy til shuhratini dunyoga yoydi. Natijada dunyo uning asarlari orqali madaniyatimiz bilan tanishdi, xalqimizning bebaho qadriyatlariga ehtiromi oshdi.

Shuhrat SIROJIDDINOV,
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti universiteti rektori,
akademik



Navoiyning shogirdi muarrix Xondamir ta'kidlaganidek, "sultonlar uning asarlariga ega bo'lishga intilar, choparlar yuborib, Navoiydan kitoblar tilar va uning asarlarini o'z kutubxonalarining oliy bezagi sifatida ardoqlar edilar".

Mustaqillik davrida Navoiy nomi o'zbek xalqining kimlik tushunchasini ifoda etguvchi milliy timsolga aylandi. Bugun Yer kurrasining qaysi burchagida Navoiy siymosi xotirlansa, Navoiydan kitoblar tilar va uning asarlarini o'z kutubxonalarining oliy bezagi sifatida ardoqlar edilar".

Mustaqillik davrida Navoiy nomi o'zbek xalqining kimlik tushunchasini ifoda etguvchi milliy timsolga aylandi. Bugun Yer kurrasining qaysi burchagida Navoiy siymosi xotirlansa, Navoiydan kitoblar tilar va uning asarlarini o'z kutubxonalarining oliy bezagi sifatida ardoqlar edilar".

Bu borada Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

zimasiga bir qator vazifalar yuklatilgan va bu tabiiy. Milliy tilimiz va adabiyotimizni o'rganishga ixtisoslashgan universitet Alisher Navoiy bobomiz nomi bilan atalganining o'ziyoq ta'lim muassasi zimasidagi asosiy vazifalar qatorida bobokolonimizning g'oyalarini amalga oshirish, xalqimiz madaniyatini, o'zbek tili va adabiyotini xalqaro miqyosda targ'ib etish kabi ulug' missiya borligini anglatadi. 2016-yil universitetning ochilish marosimida davlatimiz rahbari universitet yoshlarining ma'naviy tarbiyasi va har tomonlama yetuk, vatanparvar mutaxassislar tayyorlash bilan bir qatorda xorij o'lkalarda milliy madaniyatimiz, ona tilimiz

va adabiyotimizni targ'ib etish ishlariga mas'ul bo'lishini ta'kidlagan edi.

O'tgan yillar davomida qabul qilingan bir necha farmon va qarorlarda universitetimiz buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy-adabiy merosi bilan dunyo xalqlarini yaqindan oshno qilish, soha olimlarini xorijdagi ilmiy-tadqiqot markazlari bilan yaqin hamkorligini ta'minlash ishlariga bosh bo'lishi haqida bir qator vazifalar belgilab berildi. Shuni ta'kidlash joizki, ushbu vazifalar ijrosi yo'lidagi sa'y-harakatlar bir paytning o'zida universitetning xalqaro miqyosda tanilishi va e'tirof etilishiga sabab bo'ldi.

Ilgari o'zbek olimlari tashqi ilmiy makondan batamom uzilib qolgan, muhim yangiliklarga boy tadqiqotlaridan xorijlik mutaxassislar xabarsiz bo'lib, dunyoning mashhur o'zbekshunos olimlari yig'ilib turadigan xalqaro konferensiyalarga bitta-yarimta o'zbek olimi tasodifan qatnashib qolishini hisobga olmasak, o'zbek tili va adabiyoti tarixi masalalar o'zbek mutaxassislari ishtirokisiz muhokama qilinardi. Universitet tashkil etilgach, muntazam ravishda yo'lga qo'yilgan o'zbek tilshunosligi, adabiyotshunosligi va tarjimonshunosligi masalalariga bag'ishlangan xalqaro konferensiyalar dunyo turkologlarining e'tiborini o'ziga tortdi, o'zbek adabiyoti do'stlari klubi doirasida shoirlar va adiblar o'rtasida yaqin aloqalar o'rnatildi, o'zbek tili va adabiyoti, tarjima ishlari bilan shug'ullanuvchi xorijlik mutaxassislar bilan tez-tez xalqaro davra suhbatlari va seminarlar o'tkazish an'anaga aylandi.

Muxtasar aytganda, universitetimiz tilimiz va adabiyotimizning dolzarb muammolarini xorijliklar bilan birga ko'rib chiquvchi jahoniy markazga aylandi. Dunyo o'zbek olimlarini tandi. O'zbek olimlari dunyoga chiqdi. Universitet tomonidan 2016-yildan buyon har yili fevral oyida bobokolonimizning tavallud kuni munosabati bilan o'tkazib kelinayotgan "Alisher Navoiy va XXI asr" uluslararo konferensiyasida AQSH, Fransiya, Koreya, Germaniya, Vengriya, Turkiya, Hindiston, Pokiston, Afg'oniston, Eron, Shvetsiya, Rossiya, Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston kabi davlatlarning olimlari muntazam ishtirok etayotgani buning dalilidir.



Konferensiyalarga tayyorgarlik jarayonlarida ma'lum bo'lishicha, turli davlatlarda o'zbek adabiyoti, xususan, Navoiy ijodi bilan bog'liq tadqiqotlar olib borish istagida bo'lgan yosh olimlarning soni tobora ortib bormoqda. Toshkentdagi konferensiyaga kelishni istaydigan, ammo turli sabablarga qatnashish imkoniyatiga ega bo'lmaganlar ham ko'pligi ko'rindi. Ana shunday olimlar uchun imkoniyat yaratish va barcha mamlakatlardagi navoiyshunoslarning o'zaro hamkorligiga erishish maqsadida 2023-yildan e'tiboran "Alisher Navoiy va XXI asr" uluslararo konferensiyasini O'zbekistondan tashqarida o'tkazib borish rejalashtirildi.

2023-yil Bokuda o'tkazgan konferensiyamiz biz to'g'ri yo'lni tanlaganimizni ko'rsatdi. Ozarbayjonning turli viloyatlarida faoliyat ko'rsatib kelayotgan olimlarning o'zbek olimlari bilan muloqoti o'zbek-ozar ilmiy-adabiy hamkorligi tarixida yangi sahifa ochdi. Yangi nomlar kashf etildi, O'zbekiston va Ozarbayjon olimlarining yaqindan tanishuvi natijasida keng qamrovli xalqaro hamkorlik ishlari boshlanib ketdi.

O'tgan haftada "Alisher Navoiy va XXI asr" uluslararo konferensiyasi Turkiyaning qadimiy Bursa shahridagi Uludag' universitetida o'tkazildi. Ushbu nufuzli anjumanda Turkiyaning deyarli barcha ko'zga ko'ringan navoiyshunos

olimlari faol ishtirok etdi. O'zbekistondan tashrif buyurgan navoiyshunos olimlar bilan muloqotda ular Alisher Navoiy hayoti va ijodini ko'rganish, targ'ib etish bo'yicha O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ishlarni katta qoniqish bilan kuzatayotgani, birgalikda hamkorlik qilishga katta umid bildirgani bizni quvontirdi.

Konferensiya doirasida Turkiyada Navoiy ijodini o'rganish, o'zbek xalqi madaniyati va san'atini targ'ib etishga umrini bag'ishlagan 21 nafar olim va jamoat arbobiga davlatimiz rahbari ko'rsatmasi bilan universitetda ta'sis etilgan "Alisher Navoiy" ko'krak nishoni topshirildi.

Prezidentimizning 2024-yil 12-yanvardagi "Xorijiy davlatlarda O'zbekiston tarixi va madaniyati, o'zbek tili va adabiyotini o'rganishni keng targ'ib qilish orqali turistlar oqimini ko'paytirish hamda mamlakatimiz nufuzini yanada oshirishga doir qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi qarori universitetimiz xalqaro miqyosda amalga oshirayotgan ishlarini yanada yuqori bosqichga ko'tarishga turki berganini alohida urg'ulash lozim.

Yurtimizning boy ilmiy, tarixiy, madaniy va ma'naviy merosini o'rganishga qiziqish yuqori bo'lgan xorijdagi ta'lim va ilmiy tashkilotlarda universitetimizning Alisher Navoiy nomidagi markazlarini ochish O'zbekiston imijining yuksalishiga xizmat qilishi ham hujjatda qayd etilgan.

Bugunning gapi

Maktab — oltin fond

Ma'rifiy makon esa
uning asl boyligidir

O'zbekiston aholisining katta qismini yoshlar tashkil etishi dunyodagi demografik tanazzulga uchrab borayotgan mamlakatlar bilan qiyoslaganda bemsil xazina, katta kuch sanaladi. Bu ayni paytda ularning ma'naviyati, ta'lim-tarbiyasiga muntazam e'tibor, qo'llab-quvvatlov va insoniy yondashuvni talab etadi. "Bolaning begonasi yo'q", "Bir bolaga yetti mahalla ota-ona" degan o'g'itlar, ming yillik sharqona saboqlarning amaliyotida ishlashi bugun har qachongidan ham zarur.

Prezidentimiz raisligida joriy yil 5-fevral kuni ijtimoiy sohalaridagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ta'lim, tibbiyot, raqamlashtirish, madaniyat va sport sohalaridagi islohotlarning joylardagi ijrosini ta'minlash va amalga oshirish mexanizmlari belgilab berildi. Yig'ilishni kuzatib, uning mazmun-mohiyatini bitta iboraga joylagim keldi: vatanparvar va sog'lom avlod, barqaror mamlakat!

Bunday deyshimizga asos bor, albatta. Eng avvalo, davlatimiz rahbari maktabgacha ta'lim, o'rta va oliy ta'lim integratsiyasini, jamoatchilik nazorati,

faoliyati, o'rning ahamiyatini batafsil, tahlillar orqali tushuntirib berdi. Keltirilgan misollar va mavjud muammolarning tub zahirida vatanparvarlik tuyg'usi aks etgan.

Mazkur yig'ilishda maktablardagi og'riqli masalalardan biri tarbiya va ma'naviyat ekani haqida gap borar ekan, o'tgan yili voyaga yetmaganlar 3,5 mingta jinoyat sodir etgani, shundan 2280 nafarini maktab o'quvchilari tashkil qilayotgani barchamizni birdek tashvishga solishi kerakligi urg'ulangani bejiz emas. Maktab — oltin fond! Bu fondni bunyod etish, asrab qolish esa katta vazifa.

Ayni kunlarda Surxondaryo viloyati hokimining tashabbusi bilan maktablarda "O'talar majlisi"ning joriy etilishiga e'tiborli voqea sifatida qaralmoqda. Ota o'z farzandining darsidan, maktabda o'zini tutishidan boxabar bo'lishi ancha vaqtdan buyon kuzatilmagan hodisa edi. Buni tan olishimiz kerak. O'qituvchining nufuzi naqadar ulug' ekani jamiyatimizda deyarli unutilayozdi. Bu nozik va dolzarb masalani davlatimiz rahbari barchamizga takror eslatdi. O'qituvchining, pedagogning maqomi naqadar yuksakligi, aslida ham shunday bo'lishi zarurligi, bunga kattayu kichik birday amal qilishi shartligi belgilandi.

Shu o'rinda bir mulohaza: o'quvchi o'qituvchini bilimi, yurish-turishi, o'zini tutishidan o'nak olmas

ekan, undan hayiqmaydi, hurmat qilmaydi. Bugungi o'quvchining, ota-onaning ham mas'uliyati oshirilishi kerak. Farzandiga darsda jim o'tirmagani yoki darsga tayyorlanmay kelgani uchun ikki og'iz dakk bergan o'qituvchini sudga berishgacha borayotgan, o'qituvchi maqomini yerga urayotgan ota-onalar ham, afsuski, uchrab turibdi. Bu masalalarni hal qilishga jamoatchilik ham aralashishi zarur. Mahalla oqsoqollari o'z so'zini aytishi kerak.

Vatanparvarlik tuyg'usi, shukronalik hissi o'z-o'zidan shakllanmaydi. O'sib kelayotgan avlod yuragida bu tabarruk hislar ildiz otishi uchun bilim va tushuncha, undan ham avval ibrat zarur. Ibratni esa yoshlar kattalardan olishi aniq. Bu kabi maishiy masalalarni birgalikda yechishimiz zarur.

Xalqimizning o'lmas an'analari, qadriyatlarini asosida yosh avlodga o'dob-axloq, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, olijanoblik xislatlari singdirib kelingan. Insoniylik fazilatlarini shakllantirish bilan birgalikda kasb-hunar egasi bo'lishi uchun astoydil harakat qilgan.

Yoshlarda ma'naviy tarbiyani shakllantirishda, shubhasiz, kitob va kitobxonlikning o'rni katta. Shuningdek, ularni sport, musiqaga jalb etish orqali



Nargiza RAHMATULLAYEVA,
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi
Surxondaryo viloyati bo'limi rahbari

intellektual salohiyatli, jismonan sog'lom va aqlan yetuk etib tarbiyalash muhim o'rin tutadi.

Prezidentimiz ham maktab o'quvchilarining bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish va kasbga yo'naltirish orqali ziyo maskanini bitirgunga qadar hayotga har tomonlama tayyor bo'lib voyaga yetishi dolzarb, kechiktirib bo'lmaydigan vazifa ekanini aytdi.

Yig'ilish barchamiz uchun chaqiriq, ogohlik qo'ng'irogi bo'lishi zarur. Bugun Prezidentimiz ko'targan masalalarda, avvalo, inson omili, inson fenomeni mujassam. Va eng muhimi, bu yangi O'zbekistonda ma'rifiy makonni yaratishga chaqiriqdir.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока"
gazetalarini tahririyati DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriq qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Kolorpak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 509.

9800 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taqob. O'set usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

"Kolorpak" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Jonibek Alijonov
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy